

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida
UDK – 574.62

ODILOVA MAHFUZA OCHILOVNA

**«Buxoro viloyatining Og`itma ko`lidagi zooplanktonlarni aniqlash
va baliqchilikda qo`llash»**

**5A 140103 - Ixtiologiya va Gidrobiologiya mutaxassisligi bo`yicha
biologiya magistri darajasini olish uchun**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: _____ b.f.n. dotsent N.E. Rashidov

Buxoro – 2020

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Agronomiya va biotexnologiya
fakulteti “Biologiya” kafedrasida bajarilgan

Ilmiy rahbar:

(imzo)

(ilmiy darajasi va unvoni, ismi-sharifi)

Rasmiy opponent:

(imzo)

(ilmiy darajasi va unvoni, ismi-sharifi)

Kafedra mudiri:

(imzo)

(ilmiy darajasi va unvoni, ismi-sharifi)

Magistratura bo`limi boshlig`i:

(imzo)

(ilmiy darajasi va unvoni, ismi-sharifi)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: **Agronomiya va biotexnologiya**

Kafedra: **Biologiya**

O'quv yili : **2018-2020**

Magistratura talabasi: **M.O.Odilova**

Ilmiy rahbar: **N.E.Rashidov**

Mutaxassisligi: **5A-140103 Ixtiologiya
va gidrobiologiya(fan o`nalishlar
bo`yicha)**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING ANNOTATSIYASI

BUXORO VILOYATINING OG'ITMA KO'LIDAGI

ZOOPLANKTONLARNI

ANIQLASH VA BALIQCHILIKDA QO'LLASH

Mavzuning dolzarbligi. Baliq va baliq mahsulotlari kimyoviy tarkibi va ta'mi jihatidan mol yoki qo'y go'shtidan qolishmaydi, ammo fiziologik hazm jihatidan ulardan ancha ustun turadi. Toza baliq go'shtida 15-22% oqsil, 0,2 dan 30,8% gacha yog' va oz miqdorda 0,5-0,6% uglevod bor. Asosiy baliq oqsili - ixtulin va kallogendir. SHu sababli baliq gipertoniyani oldini oladigan va xolesterinsiz oziq-modda, moyi esa oson eriydi va yaxshi hazm qilinadi. Baliqlar turiga qarab ulardagi yog' miqdori 2% dan - 20% gacha bo'lib, unda vitaminlardan A va Djuda ko'p. SHu xususiyati bilan boshqa yog'lardan farqqiladi. Undan tashqari baliq va undan tayyorlangan mahsulotlar mineral moddalarga, ayniqsa fosfor, kalsiy, magniy, natriy, kaliy, yod, marganets va rux kabi elementlarga juda boy. Xo'jaliklarda etishtirilayotgan baliqlarning hosildorligining pasayishi, birinchidan baliqlarga talabga to'la javob berdigan omuxta yem ishlab chiqarilmayotganligi, ikkinchidan yemlarning sifati juda past bo'lib ular

faqat klechatka vassellyulozadan iboratligi, uchinchidan narxining nihoyatda balandligi va to'tinchidan bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashgan baliq etishtirish texnologiyasining yo'qligi. Bundan tashqari tabiiy ko'llar evtrofikatsiya jarayoniga uchrab, barcha kanal, zovur xamda ko'llar yuksak va tuban o'simliklari bilan qoplanganligidir.

Tadqiqot obyekti: Og'itma ko'li . Ko'lning zooplanktoni.Ularni o'rganish uchun reja asosida tadqiqot olib borish.

Tadqiqot maqsadi: Hidrobiologik ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishish.Material yig'ish, suv gidrobiontlarning yashash muhiti sifatida miqdor va sifat namunalari yig'ish, ularni fiksatsiyalash, laboratoriya sharoitida cameral qayta ishlash, tatal preparat tayyorlash. Zooplankton turlarini aniqlash va ularni baliqchilikda qo'llash.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Ko'l zooplankton organizmlarini ko'paytirish, ozuqa bazasiga qarab zooplankton istemol qiluvchi baliqlarni ko'paytirish, Og'itma ko'li hududida sadokda baliqlarni zooplankton bilan boqish, baliqchilik xo'jaliklari tomonidan genofond sifatida foydakanish.

Tadqiqot yangiligi:Ilk bor Og'itma ko'lida zooplankton istemol qiluvchi baliqlarni sadok usulida boqish.

Tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi: Baliqchilikda ekstensiv usulni qo'llab baliqlarni omuxta em bilan emas balki tabiiy ozuqa zooplanktonlardan foydalanish maqsadga muofiq.

Dissertatsiya tarkibining tuzilishi: Dissertatsiya ishi kirish, beshta bob, xulosh va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ilmiy rahbar:

N.E.Rashidov

Magistratura talabasi:

M.O.Odilova

Faculty: **Agronomy and Biotechnology**

Master's student: **M.O. Odilova**

Department: Biology Supervisor: **N.E Rashidov**

Academic year: **2018-2020**

Specialty: **5A-140103 Ichthyology and hydrobiology (science) on)**

**ABSTRACT OF MASTER'S DISSERTATION ZOOPLANKTONS IN
LAKE, BUKHARA REGION DETERMINATION AND
APPLICATION IN FISHING**

Relevance of the topic. Fish and fish products are not inferior to beef or mutton in terms of chemical composition and taste, but are far superior to them in terms of physiological digestion. Pure fish meat contains 15-22% protein, 0.2 to 30.8% fat and a small amount of 0.5-0.6% carbohydrates. The main fish proteins are ichthyulin and collagen. That is why fish is a cholesterol-free nutrient that prevents hypertension, and the oil is easily soluble and well digested. Depending on the type of fish, their fat content can range from 2% to 20%, which is high in vitamins A and Judas. It differs from other oils in this respect. In addition, fish and fish products are very rich in minerals, especially elements such as phosphorus, calcium, magnesium, sodium, potassium, iodine, manganese and zinc. Decreased productivity of farmed fish, firstly, the lack of compound feed that meets the demand for fish, secondly, the quality of feed is very low and consists only of klechatka vascellulose, thirdly, the high cost and ninthly, the technology of fish farming adapted to market conditions. absence In addition, natural lakes are eutrophicated and all canals, ditches and lakes are covered with high and low vegetation.

Object of research: Lake Ogirma. Zooplankton of the lake. Planned research to study them.

The purpose of the study: to get acquainted with the methods of hydrobiological research. Identification of zooplankton species and their application in fisheries.

Practical significance of the research: Reproduction of zooplankton organisms in the lake, reproduction of zooplankton-consuming fish depending on the feed base, feeding of zodiac fish with zooplankton in the area of Lake Ogitma, use by fisheries as a gene pool.

Novelty of the research: For the first time in Zogitman Lake, zooplankton-eating fish were fed in a sadok way.

Economic efficiency of the research: In fisheries, it is advisable to use natural feed zooplankton instead of mixed feed for fish using an extensive method.

The structure of the dissertation: The dissertation consists of an introduction, five chapters, a summary and a list of references.

Scientific adviser: N.E. Rashidov

Master's student: M.O.Odilova

Факультет: **Агрономия и биотехнология.**

Магистрант: **М.О. Одилова.**

Руководитель: Кондидат биологический наук, доцент **Н.Э. Рашидов**

Учебный год: **2018-2020** гг.

Специальность: **5А-140103 Ихтиология и гидробиология (наука) на)**

ЗООПЛАНКТНЫ В ОЗЕРО БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ В РЫБАЛКЕ

Актуальность темы. Рыба и рыбопродукты не уступают говядине или баранине по химическому составу и вкусу, но намного превосходят их по физиологическому усвоению. Чистое мясо рыбы содержит 15-22% белка, 0,2-30,8% жира и небольшое количество 0,5-0,6% углеводов. Основными белками рыб являются ихтиулин и коллаген. Вот почему рыба является питательным веществом без холестерина, предотвращающим гипертонию, а масло легко растворяется и хорошо переваривается. В зависимости от типа рыбы, их содержание жира может составлять от 2% до 20%, в котором много витаминов А.

В этом отношении он отличается от других масел. Кроме того, рыба и рыбопродукты очень богаты минералами, особенно такими элементами, как фосфор, кальций, магний, натрий, калий, йод, марганец и цинк. Снижение продуктивности разводимой рыбы, во-первых, отсутствие комбикорма, что удовлетворяет спрос на рыбу, во-вторых, качество корма очень низкое и состоит только из клещевины вацеллюлозы, в-третьих, из-за высокой стоимости и в-девятых, технологии рыбоводства, адаптированной к рыночным условиям. Отсутствие кроме того, естественные озера эвтрофицированы, и все каналы, канавы и озера покрыты высокой и низкой растительностью.

Объект исследования: озеро Огитма. Зоопланктон озера. Планируются исследования по их изучению.

Цель исследования: познакомиться с методами гидробиологического исследования. Идентификация видов зоопланктона и их применение в рыболовстве.

Практическая значимость исследования: размножение организмов зоопланктона в озере, размножение рыб, потребляющих зоопланктон, в зависимости от кормовой базы, кормление зооидальных рыб зоопланктоном в районе озера Огитма, использование рыбным хозяйством в качестве генофонда.

Новизна исследования: впервые на озере Зоогитма рыбу, питающуюся зоопланктоном, кормят садок.

Экономическая эффективность исследования. В рыбном хозяйстве целесообразно использовать натуральный кормовой зоопланктон вместо смешанного корма для рыб с использованием обширного метода.

Структура диссертации: Диссертация состоит из введения, три глав, резюме и списка использованных источников.

Научный руководитель:

Н.Э. Рашидов

Магистрант:

М.О.Одилова

MUNDARIJA

Kirish.....	3
--------------------	----------

I BOB. Ko`l suvida tirik organizimlar yashashi uchun muhim bo`lgan muhitlar	14
--	-----------

1.1.Suv harorati.....	
1.2.Suv tiniqligi	
1.3.Suv havzasidagi gaz rejimining baliqlarga ta`siri	

II BOB. Og`itma ko`lidagi zooplankton turlari va baliqlar uchun ahamiyati	36
--	-----------

2.1.Og`itma ko`lida uchravchi zooplankton turlari.....	36
2.2.Zooplanktondan ozuqa bazasi sifatida foydalanish.....	37
2.3 Zooplanktonlarni baliqlarda qo'llash.....	48

III BOB. Og`itma ko`lining ixtiofaunasi.....	
---	--

3.1.Og`itma ko`lida sadok akvakulturasini rivojlantirishning biologik asoslari.....	62
3.2. Baliqlarini qafasda ekstensiv va yarim intensiv sharoitlarda o`stirish.....	66
3.3.Baliq chavoqlarini qafaslarda o`stirish.....	66

Xulosa.....	68
--------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	70
--	-----------

Chop etilga maqolalar.....	75
-----------------------------------	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Baliq va baliq mahsulotlari kimyoviy tarkibi va ta'mi jihatidan mol yoki qo'y go'shtidan qolishmaydi, ammo fiziologik hazm jihatidan ulardan ancha ustun turadi. Toza baliq go'shtida 15-22% oqsil, 0,2 dan 30,8% gacha yog' va oz miqdorda 0,5-0,6% uglevod bor. Asosiy baliq oqsili - ixtulin va kallogendir. Ixtulin tarkibida odam uchun zarur barcha aminokislotalarga boy bo'lgan to'la qimmatli oqsil mavjud. SHu sababli baliq gipertoniyani oldini oladigan va xolesterinsiz oziq-modda, moyi esa oson eriydi va yaxshi hazm qilinadi. Baliqlar turiga qarab ulardagi yog' miqdori 2% dan - 20% gacha bo'lib, unda vitaminlardan A va D juda ko'p. SHu xususiyati bilan boshqa yog'lardan farqqiladi. Undan tashqari baliq va undan tayyorlangan mahsulotlar mineral moddalarga, ayniqsa fosfor, kalsiy, magniy, natriy, kaliy, yod, marganets va rux kabi elementlarga juda boy.

Respublikamiz aholisining salomatligini ta'minlash uchun oqsil moddasiga boy bo'lgan baliq va baliq mahsulotlari muhim ahamiyatga ega. Respublika Sog'liqni saqlash vazirligining tavsiyasiga ko'ra har bir inson organizmi sog'lom rivojlanishi uchun yil davomida 12 kg baliq va baliq mahsuloti iste'mol qilishi lozim yoki bir kechayu-kunduz ratsionning 32,8 gni tashkil qiladi. Bu norma 2019 yilda 23 kg ni tashkil qilgan yoki bir kechayu- kunduz ratsionini 49,3 g ni tashkil qilinishi lozim. Hozirgi kunda mahsulotlar yetishtirilayotgan baliqchilik mas'uliyati cheklangan holda va mo'ljallangan xo'jaliklarda tabiiy sharoitlardan kelib chiqqan holda mamlakatimiz aholisi ehtiyojini to'liqqondira olgani yo'q.

Baliq moyi *treskasimon* baliq turlarining jigaridan tayyorlanadi. Sanoat miqyosida vitaminlashtirilgan baliq moyi ishlab chiqariladi va undan raxit, sil, shabko'rlik kabi kasalliklarni davolashda ishlatiladi hamda singan suyaklarni bitishida keng foydalaniladi. Baliq moyi bolalarning 2-3 oyligida kuniga bir marotaba 1-2 tomchi ichirib, har kuni 1 tomchidan oshirilib

boriladi. Ammo yozda bolalarga baliq moyi berilmagani ma'qul. Kuygan, jaroxatlangan joylarni, yara-chaqalarni davolashda sirtidan malham sifatida ishlatiladi. Baliq moyi og'zi berk idishda qorong'i joyda saqlanadi. Chunki baliq moyi tarkibidagi vitamin yorug'likda zaharli toksisteromga aylanishi mumkin.

Modomiki, baliq va baliq mahsulotlari "Etti xazinaning biri" yoki "Baliqluqmai halol" degan iboralarga e'tibor berilsa baliq nihoyatda qimmatli oziqa mahsulotlaridan biridir.

Hozirgi kunda Respublikamizda etishtirilayotgan baliqlarning asosiy qismi hovuz xo'jaliklarida etishtiriladi. O'tgan asrning 80-yillarida hovuz xo'jaliklarining har bir gektar hisobiga baliqning o'rtacha hosildorlik 24ss/ga ni tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilda o'rtacha hosildorligi 6s/ga ni tashkil etadi xolos. Buxoro viloyatida shu ko'rsatkichlar 80-90-yillarda 10-12 kg/ga, 2006-2007 yillarda esa 1,0-1,5 kg/ga ni tashkil qildi. Xo'jaliklarda etishtirilayotgan baliqlarning hosildorligining pasayishi, birinchidan baliqlarga talabga to'la javob berdigan omuxta yem ishlab chiqarilmayotganligi, ikkinchidan yemlarning sifati juda past bo'lib ular faqat klechatka vassellyulozadan iboratligi, uchinchidan narxining nihoyatda balandligi va to'tinchidan bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashgan baliq etishtirish texnologiyasining yo'qligi. Bundan tashqari tabiiy ko'llar evtrofikatsiya jarayoniga uchrab, barcha kanal, zovur xamda ko'llar yuksak va tuban o'simliklari bilan qoplanganligidir.

Shu sababli ochiq suvliklar yoki ularning pelagial qismlarida mikroskopik suvo'tlari, fitoplankton va zooplanktonlar bilan boyib ketgan. Bularni iste'mol qiladigan baliq turlariga oq amur, qora amur, oq do'ngpeshona va chipor do'ngpeshona kiradi. Ayniqsa, chipor do'ngpeshona o'zining sifati bilan karp yoki oq amurdan qolishmaydi. SHuning uchun ham kelgusi davr shiori - baliqchilikdan baliq yetishtirish va aholini to'la ta'minlashdan iborat.

Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 23 avgustdagi 350-qaroriga muvofiq

Mamlakatimiz xududidagi barcha tabiiy suvliklar va sun'iy havzalar davlat tassarufidan chiqarilib mas'uliyati cheklangan baliqchilik xo'jaliklariga aylantirilgan. SHuning uchun ushbu qarorning asosiy maqsadi baliqchilikni istiqbolda yanada rivojlantirish va uning hosildorligining oshirilishidan iborat.

Buxoro viloyatida qayd etilayotgan qarorlarni turmushga tadbqiq qilish maqsadida 2018 yil 5 fevralda "Viloyatda 2018-2021 yillarda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 115-sonli Qaror qilindi. Bu qarorning II bandiga muvofiq "Buxorobaliq" mas'uliyati cheklangan jamiyati sun'iy baliqchilik hovuzlarida mayda baliq chavoqlarini sex usulida etishtirish va tabiiy ko'llarni baliqlashtirish, bir yoshgacha bo'lgan baliqchalarni (oktyabr oyigacha) standart razmergacha boqish: *oq amur* 80-100 g, *oq do'ngpeshona* 30-50 g, *chipor do'ngpeshona* 30-50 g hamda *karp* 30-35 g ga etkazilib so'ngra ko'llarni baliqlashtirish masalasini bajarilish vazifasi qo'yilgan.

Hozirgi kunda "Bioekologik muhit yaxshilanmasa sog'liq-salomatlik, sog'lom hayot, sog'lom avlod to'g'risida hech qanday gap bo'lishi mumkin emas", degan Prezidentimizning fikri hammaga ma'lum. Yildan-yilga avj olib borayotgan kamqonlik, yod va boshqa bir qator vitaminlarning organizmlarda etishmasligi va shu kabilar bunga misol bo'ladi.

Taklif etilayotgan mazkur magistrlik dissertasining asosiy maqsadi - baliq va baliq maxsulotini ko'p miqdorda va yuqori qilib insonlar uchun etkazib berish va baliqchilik tizimini yangi pog'onada rivojlantirishni talab qiladi.

Tadqiqot obyekti: Og'itma ko'li . Ko'lning zooplanktoni.Ularni o'rganish uchun reja asosida tadqiqot olib borish.

Tadqiqot maqsadi: Hidrobiologik ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishish.Material yig'ish, suv gidrobiontlarning yashash muhiti sifatida miqdor va sifat namunalari yig'ish, ularni fiksatsiyalash, laboratoriya

sharoitida kameral qayta ishlash, tatal preparat tayyorlash. Zooplankton turlarini aniqlash va ularni baliqchilikda qo'llash.

Tadqiqot usullari: Dala sharoitida zooplankton namunalarini yig'ish, fiksatsiyalash, gidrokimyo, gidrobiologiya usullaridan foydalaniladi (A.I.Kiselyov, 1968). Laboratoriya sharoitida kameral qayta ishlash, tatal preparat tayyorlash usuli (Mirabdullayev 2012, Muhammadiyev 1989, Kutikova 1970), Bogorov kamerasida sanash, biomassani aniqlashda adabiyotlardan (Niyozov, 2013) foydalanildi.

Tadqiqot vazifalari:

1. Buxoro viloyati Og'tma ko'lidagi zooplanktonlarni aniqlash.
2. Zooplankton miqdorini, biomassasini aniqlash va uning mahsuldorligini ko'lidagi boqiladigan baliq nisbatiga taqqoslash.
3. Og'tma ko'lidagi baliqchilik xo'jaligi uchun, ayniqsa baliq chavoqlarini zooplankton bilan boqishda genafond sifatida foydalanish mumkinligini aniqlash.
4. Og'tma ko'lidan zooplankton namunalari olib, maxsus lotok, basseyn, xandaklarda ko'paytirish va ulardan baliq chavoqlarini boqishda foydalanish mumkin yoki yo'qligini aniqlash.

Ishning sinovdan o'tishi. Bajarilgan ilmiy tadqiqot natijalari Buxoro davlat universitetida "O'zbekistonda chorva ozuqasi ekinlari hosildorligi va ozuqa etishtirishning samaradorligini oshirish" mavzusida (2019 yil 12-13 aprel) o'tkazilgan ilmiy anjumanlarida ma'ruza qilindi., Buxoro davlat universitetida chiqadigan Pedagogik Mahorat jurnalining 4-sonida (2019 yil sentyabr) maqola bosib chiqarildi. Dissertatsiya yuzasidan 1ta maqola nashrga topshirildi va 1ta maqola nashrga tayyorlanmoqda.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. KO'L SUVIDA TIRIK ORGANIZMLAR YASHASHI UCHUN MUHIM BO'LGAN MUHITLAR

Baliq insoniyat uchun nihoyatda qimmatbaho ozuqa manbai hisoblanib, uning odam organizmi uchun ahamiyati beqiyosdir. SHu sababli ham tibbiyot tomonidan odam sog'lom o'sishi uchun zarur bo'lgan me'yor yiliga o'rtacha 16 kg deb belgilangan. 2018 yilga kelib, baliq va baliq mahsulotlarini iste'mol qilish jahon ko'rsatkichi 21 kg ga etdi va o'sishda davom etmoqda. Tibbiyot belgilagan me'yordan kelib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston aholisining bugungi kundagi baliq va baliq mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoji 450-500 ming tonnani tashkil etadi. 2017 yilda respublika bo'yicha 85 ming tonna baliq etishtirilganligini inobatga oladigan bo'lsak, bu mahsulot taqchilligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi va bu masalaning echimi ham tibbiy ham ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

1961 yilgacha respublika baliq xo'jaligi Orol dengizida baliq tutishga asoslangan edi va shu yillari baliqchilar yiliga o'rtacha 25 ming tonna baliq tutishgan. 1960 yillardan boshlab keng miqyosdagi irrigatsion qurilishlar asorati – Orol dengizini ham chetlab o'tmadi, daryo oqimining to'silishi natijasida dengizga kelib tushadigan suv miqdori uning sathidan bug'lanayotgan suv miqdoridan kamligi sababli u tezlik bilan quriy boshladi va uning suvi sho'rlanib, o'zining baliqchilik ahamiyatini yo'qota boshladi [2.-S.34-65;3.-R.47-72;].

1960 yillardan boshlab respublika baliqchilik tarmog'iga baliqchilik fanini yaratishni, mutaxassislar tayyorlashni, infrastruktura tuzilmalarini yaratishni, jihozlar, xom-ashyo materiallari bilan ta'minlashni o'z ichiga oladigan baliqchilikni rivojlantirish dasturlari joriy qilina boshladi. Orol dengizi halokati tufayli yo'qotilgan 25 ming tonnadan ortiq baliq butun respublika bo'ylab tashkil qilingan 20 ming gektar maydondagi hovuzlardan olina boshlandi. Karpsimon baliqlarni polikultura sharoitida o'stirish texnologiyalari ishlab chiqildi va moliyalashtirilishiga qarab yiliga 20 – 28

ming tonna baliq etishtirila boshlandi. Bu ko'rsatkichga suv kam bo'lgan yillar ham o'z ta'sirini ko'rsata olmadi. [4.-S.114-115;5.-S.35-67;6.-S.5-56;7.-5-16;8.-S.229-235;9.-R.8-13,71]

Zooplankton organizmlarining sifat va mikdorini baxolash buyicha tadqiqot ishlari xorijlik olimlar J.A. Benzie(2006), J.M. Boberts(2009), Ch. Farwell (2014), Sinjae Yoo (2015), M. Povlov (2016), A.E. Friederike (2016) tomonidan olib borilgan. MDX mamlakatlarida zooplankton organizmlarining morfo-ekologik xususiyatlari va mavsumiy suksessiyasini aniqlashga oid tadqiqotlar V.R. Alekseev (1995), N.M. Karovchinskiy (2004), N.V. Kartasheva (2006) tadqiqotlarida yoritilgan.

O'zbekistonda pirobiologik tadqiqotlar yo'nalishida mamlakatimiz olimlari A.M. Muhamediev (1967, 1986), E.A. Toshpo'latov (1975), I.M. Mirabdullaev (1990, 1992), A.R. Kuzmetovlar (1999) tomonidan turli tipdagi suv ekotizimlarida zooplankton organizmlarning taksonomiyasi, tarqalishi, ekologik xususiyatlari va baliqchilik suv havzalari oziqa mahsuldorligini oshirishga yunaltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda asosiy e'tibor mustaqil davlatni barpo etish, uning sarhadlari butunligini ta'minlash kabi muammolarga qaratilganligi sababli baliqchilik tarmog'i muayyan qiyinchiliklarga duch keldi, xom-ashyo materiallari, baliqchilik jihozlarini etkazib berish bo'yicha aloqalar to'xtab qoldi, pirovard natijada baliq etishtirish hajmi ham kamayib ketdi. Xususiylashtirish masalalaridagi qiyinchiliklar, xo'jalik faoliyat yuritishining to'liq qayta tashkil qilinishi kabi muammolarga qaramasdan, respublika baliqchilari foydalanib kelingan texnologiyalarni saqlab qolishga erishdilar [5.-S.67-89;10.-R.10-41;11.-R.17-27].

Mamlakat rivojlangan sari aholini sifatli ozuqa bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini barpo qilish, iqtisodiy barqarorlikni rivojlantirish kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Bu yo'nalishda baliq

mahsulotlari etishtirish hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilganligi Respublika Prezidentining 2017 yil 1 maydagi "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2939–sonli qarorida [1] ham o'z aksini topgan. Ushbu qarorda mavjud tabiiy va sun'iy suv havzalar zahiralaridan samarali foydalanish, ularni keng qamrovli tadqiq qilish, yangi baliq turlarini mahalliy sharoitga moslashtirish orqali baliq etishtirish hajmini oshirish vazifasi yuklatilgan. SHu bilan bir qatorda mustaqillik mutlaqo yangi talablarni qo'ydiki, ularni chuqur mulohaza qilishimiz talab etiladi:

- O'zbekiston baliqlarining asosiy manbasi bo'lgan dengiz va okeanlardan ancha yiroqda, eng katta materikning o'rtasida joylashgan.
- Respublikada faqat ichki, baliq zahirolari kam bo'lgan suv havzalari mavjud, ammo ular to'liq irrigatsiya tarmog'i uchun band etilgan.
- Suv va er zahiralaridan foydalanish masalasi keskinlik kasb etadi.
- Baliq xo'jaligini rivojlantirish orqali aholini baliq mahsulotlari bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratish kerak.
- Ishlab chiqilgan texnologiyalar yuqori rentabellikka ega bo'lishi va xususiy sarmoyadorlar uchun jozibador bo'lishi talab etiladi.

Har qanday mamlakatda, shu jumladan, O'zbekistonda ham baliqning uchta manbasi bor: import, baliq ovlash, baliqchilik (akvakul'tura)dir.

Import. Dengiz bo'yidan yiroq bo'lganligi sababli, transport harajatlari ko'payib ketadi. Import faqat qayta ishlangan baliqlarga qaratiladi va arzon, tirik hamda barra chuchuk suv baliqlari importda bo'lmaydi. Import baliq mahsulotlari iste'molini sezilarli darajada oshirishi mumkin, biroq hukumat tomonidan o'zimizda baliq ishlab chiqarishni ko'paytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Baliq ovlash. O'zbekistonda dengiz yo'q, mavjud bo'lgan Orol dengizi kuchli sho'rlanib deyarli yo'q bo'lib ketdi va o'zining baliqchilik ahamiyatini yo'qotdi. Daryolar oqimi to'liq boshqariladi va shu bilan birga transchegaraviy sanaladi. Tekislik suv havzalarining sath tartibi irrigatsiya maqsadlarida foydalanilganligi tufayli yil davomida o'zgarib turadi, bu holat baliqlarning ko'payishiga, baliqchilik qoidalari bo'yicha boshqarilishiga, qirg'oq oldi infrastrukturasini rivojlantirishga kuchli to'sqinlik qiladi. Bunday sharoitda baliq ovlash turg'un bo'lmaydi, kichik va yirik sarmoyadorlar e'tiborini jalb etmaydi. SHu sababli baliq ovlash orqali aholining baliqqa bo'lgan ehtiyojini qondirish vazifasini bajarib bo'lmaydi.

Akvakul'tura. O'zbekiston sharoiti akvakulturani rivojlantirish uchun nisbatan qulay. 1994 yilgacha O'zbekistonda mavjud 20 000 gektar hovuzlardan 20000 tonnadan ortiq baliq etishtirilgan. Respublikamiz sobiq ittifoq respublikalari ichida eng ilg'orlaridan sanalib, 30 – 33s/ga baliq mahsuldorligiga erishgan (umumittifoq ko'rsatkichi 14-16ss/ga). 1994-2003 yillar oralig'ida respublika bo'ylab baliqchilik xo'jaliklarini qadamba – qadam xususiylashtirishga o'tkazila boshlandi va davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat mulkidan tasarrufidan chiqarilib, bozor munosabatlari raqobati sharoitidagi xususiy mulkchilikka ajratib berildi. Hozirgi kunda hovuzlarning baliq mahsuldorligi 20-30ss/gani tashkil qilmoqda. Agar biz hozirgi kungacha qo'llanib kelinayotgan texnologiyalarning maksimal chegarasigacha chiqarsak, yiliga o'rta hisobda 85 – 125 ming tonnagacha baliq etishtirishimiz mumkin bo'ladi. Bu yo'nalishda baliq etishtirib aholi ehtiyojini qondirishimiz uchun yana qo'shimcha ravishda 200 ming gektar hovuz barpo etishimiz kerak bo'ladi afsuski, bunday imkoniyat yo'q.

Ta'kidlash mumkinki respublikada baliq etishtirish navbatdagi nazariy boshi berk ko'chaga kirib qolganday, bu holat texnologiya shahobchalarini navbatma-navbat rivojlantirish chog'ida namoyon bo'ladi. Bu narsa shuni

anglatadiki, yangi texnologiyalarni sifatli rivojlantirishni ularning nazariy jihatdan rivojlanishidan qidirishimiz kerak yoki ko'rsatilgan texnologiyani nazariy jihatdan mumkin emasligini isbotlashimiz kerak bo'ladi. Hozirgi kunda qo'llanilayotgan texnologiyalar baliq mahsuldorligidan yuz martalab yuqori mahsuldorlikka erishishimiz mumkin bo'lgan texnologiyalar, baliq o'stirilayotgan texnologiyalarning yangi intensiv darajasi kerak bo'ladi [12.-S.34-56; 13.-S.54-55; 4.-S.114-115;14.-B.8-9;15.-36b;16.-S.146-167;17.-S.78-95].

Bugungi kunda respublikamizda baliqchilar tomonidan oq do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix*), karp (*Cyprinus carpio* L), oq amur (*Ctenopharyngodon idella*), chipor do'ngpeshona (*Hypophthalmichthys nobilis*) baliqlari ko'paytirilib parvarish qilinmoqda. SHu bilan birga jahon akvakul'turasida 100 ortiq baliq turi va boshqa suv hayvonlari ko'paytiriladi[18.- S.81-88]. Faqatgina akvakul'tura baliq ishlab chiqarish hajmini keskin oshirib ichki bozor ehtiyojlarini to'liq qondirish va sezilarli darajada eksport qilish imkoniyatini ham yaratishi mumkin. Akvakul'turani rivojlantirishning ikki yo'li mavjud: a) qo'llanilayotgan baliqlarni ko'paytirish tizimini kengaytirish; b) baliqchilikda ko'paytirilayotgan baliq turlari ro'yxatini kengaytirish. Har ikki yo'nalishni kompleks holatda bir vaqtda olib borish kerak. Oddiy hisob-kitob shuni ko'rsatadiki, vazifani baliq mahsuldorligi $10-20 \text{ kg/m}^3$ bo'lgan texnologiyalar hal qilishi mumkin. Baliq mahsuldorligining bunday darajasi qabul qilinarkan, baliq etishtirish texnologiyalarining intensivligi tushunchasini ham kiritishimiz zarur bo'ladi. SHu sababli biz intensivlikning qo'yidagi (jahon amaliyotida umumqabul qilingan) klassifikatsiyasiga to'xtalishni ma'qul ko'rdik;

- **Ekstensiv tizim**—baliqlar asosan suv havzasi tabiiy ozuqa bazasi hisobiga oziqlanadi, ammo baliqchi ozuqa bazasini tabiiy ko'paytirish uchun mineral o'g'itlardan foydalanishi yoki qo'shimcha ravishda ozuqa ham berishi mumkin.

- **Yarim intensiv tizim** – baliqlar ham tabiiy oзуqalar bilan ham sun'iy yo'l bilan beriladigan oзуqalar bilan(ko'pincha omuxta em bilan) oziqlanadi.
- **Intensiv tizim (sanoat baliqchiligi)**– baliqlar faqat sun'iy balanslashtirilgan omuxta emlar bilan oziqlanadi.

Bundan tashqari, baliqchilikda bir qator baliq etishtirish tizimlari ham farqlanadi: yaylov, hovuz, qafas, basseyn akvakul'turasi, yopiq suv ta'minoti qurilmasi, qo'ton, akvaponika va boshqalar. O'zbekistonda hozirgi vaqtgacha faqatgina hovuz baliqchiligi rivojlangan. Boshqa tizimlar tadqiq qilishni, o'zlashtirishni talab etadi va respublika sharoiti uchun yangi hisoblanadi. Baliq ko'paytirishning turli tipida baliq o'stirishning turli intensiv darajalarini qo'llash mumkin.

MATERIYAL VA TADQIQOT USULLARI

Suv havzalarining tabiiy oзуqa bazasini aniqlash uchun gidrobiologik tadqiqotlar usulidan foydalandik va namunalarni Katta qora qir suv havzasidan va sizot suvlari to'planadigan ko'llardan yig'dik.

Gidrobiontlarning suv havzalarida tutgan o'rni juda katta. Ular moddalar va energiya davriy aylanishida ishtirok etadi, suv tubi cho'kindilarining hosil bo'lishida qatnashadi. Suv havzalari hayotiyssiklining birlamchi bo'g'ini bir xujayrali tuban suv o'tlaridan tashkil topgan bo'lib ular suv organizmlarining alohida guruhlar – fitoplankton va perifitonlarni hosil qiladi. Suv havzalarining hayvonot olami zooplankton, bentos va ixtiofaunadan tashkil topgan.

Fitoplankton namunalari bir litrlik Ruttner batometrida olib 250 ml , 500 ml idishlarga qo'ydik va aralashtirdik (ya'ni integral namunalar olindi). Fitoplankton namunalarini sifatli olish maqsadida mayda ipakli gazdan tayyorlangan to'rdan foydalangan holda yig'ib ularni dastlab Lyugol eritmasida (1 - 2 ml), keyin esa 40 % lik formalin eritmasida (5-10 tomchi) fiksatsiya qildik [19.-S.32-39; 20.-S.411-415;].

Tadqiqot o'tkazish jarayonida asosan 2 xil sharoitdan, ya'ni dala va laboratoriya sharoitlaridan foydalanildi. Bunda gidroximik, gidrobiologik, ixtioologik metodlardan foydalanildi va quyidagi ishlar qilindi. Suv sifatini aniqlash uchun YS (sho'rlanish va haroratni, kislorodni o'lchaydigan) asbobidan foydalanildi va ko'llarning suvini ximiyaviy tarkibini, pestisidlarni o'rganish uchun suv namunalari olindi. (Semenov metodi). Baliqlarni o'rganishda qabul qilingan uslublardan foydalanildi. (Pravdin.I.F. 1966y, Pirojnikov.P.L. 1953y). Zooplankton, fitoplankton va bentos namunalari olindi (Jeddi setkasi va cho'lpilar yordamida). Bundan tashqari namunalar joyini belgilashda geoinformatsion sistemalardan foydalanildi. Buning uchun JPS yordamida namuna olinadigan joy koordinatalari belgilandi va Giss dasturlari yordamida xaritalarga kiritildi va fazoviy tahlil qilindi.

Laboratoriya sharoitida fitoplanktonlarni tindirish usulidan foydalandik [21.-67s; 22.-S96-97]. Materiallarni miqdoriy jihatdan qayta ishlash umum qabul qilingan Goryaev kamerasida ($0,001\text{mm}^3$) yoki Fuks-Rozental kamerasida (3.2mm^3) hajmda sanadik, tadqiqotlar laboratoriya sharoitida MEIJI mikroskopidan foydalangan holda olib bordik. Fitoplanktonni sanash natijasida olgan ma'lumotlardan uning miqdorini aniqlashda foydalandik, uning uchun esa qo'yidagi sanash formulasidan foydalandik:

Zooplankton organizmlar miqdorini aniqlash bo'yicha namunalar Apshteyn konussimon plankton to'rdan 100 litr suvni sizib o'tkazish yo'li bilan yig'dik[23.-628s; 21.-67s; 24.-S.67-70; 25.-S.5-14], sifat namunalari esa butun suv havzasi qatamlaridan shuningdek, qirg'oq oldi qismidan yig'ilib 70% spirtida fiksatsiya qilindi. Olingan namunalar Bogorov kamerasida binokulyar ostida o'rganilib ularning soni va biomassasi aniqlandi. SHundan keyin namunalar sifat jihatdan qayta ishlandi ya'ni har bir turning soni yosh bosqichlari yoki o'lchamlari bo'yicha ajratildi.

Zooplanktonlar son ko'rsatkichini aniqlash (1 m³dagi organizmlar soni) lar Apshteyn to'ri orqali sizib o'tkazilganda qo'yidagicha aniqlandi:

$$X = \frac{n \times 1000}{v},$$

bunda, X – organizmlar soni, ekz./m³;

n – namunadagi organizmlar soni, ekz.;

v – to'ri orqali sizib o'tkazilgan suv miqdori, l.

Agar, namuna plankton Djedi miqdor aniqlagich to'ri yordamida yig'lsa eng avval to'ri koeffitsientini aniqladik (1 m³ nisbatan) to'ri kirish teshiklaridan o'tkazibyu To'ri koeffitsienti qo'yidagi formula yordamida aniqlandi:

$$k = \frac{1000000}{sh},$$

bunda, s – to'ri kirish teshigi maydoni , sm²; h – gorizont, ovlash qatlami, sm.

To'ri koeffitsientini chiqarib 0-1 m, ov gorizontini oddiy bo'lish yo'li bilan boshqa gorizontlar k - ko'rsatkichini topamiz. 0-2, 2-5, 5-10 m va boshqalar = 2, 3 va 5.

Zooplanktonlar individual og'irligi allometrik o'sish formulasi yordamida aniqlandi [26.-S.64-104; 27.-S.33-38; 28.- B.3-18; 29.-S.3-26; 30.- S.3-25]. Tur tarkibini aniqlagichdan foydalangan holda aniqladik [31.- S.142-149; 32.-S.67-84].

YUksak suv o'simliklari - makrofitlarni chuqurligi 2-3 m dan oshmaydigan suv tubidan yig'ishni umum qabul qilingan usullar yordamida suv xaskashlaridan foydalangan holda amalga oshirdik. [21. -67s] turlarni aniqlashda aniqlagichdan foydalandik [33.-S.123-232; 34.-S.56-89; 35.-S.56-87].

Bentos namunalarini suv ombori , ko'llarning chuqur qatlami yumshoq loyqa qatlamidan olishda Petersen dnocherpatelidan foydalandik ($1/40 \text{ m}^2$). Qirg'oq oldi yoki suv tubidan gamuna olishda qirg'ichdan (skrebok) (suv tubining ustki qismini qirib olish uchun) foydalandik. Yig'ilgan material (№ 36) to'r orqali sizib olinib, 4% formalin eritmasida fiksatsiya qilindi.. Keyingi qayta ishlash laboratoriya sharoitida umum qabul qilingan usullar yordamida MBS-10 va MC-300X mikroskoplari hamda elektron tarozilardan foydalangan holda o'tkazildi [19.-103s].

Baliqlarni bahorgi kuzgi ko'chirib o'tkazish vaqtida yoki hovuzlardagi nazorat ovlari vaqtida, shuningdek, tadqiqot ovlari davomida katak kattaligi 28-130 mm gacha bo'lgan quyma to'rlardan foydalangan holda, suv omborlari, ko'llardan ushladik. O'rganilayotgan baliqlar tanasining uzunligini tangachalar qoplami tugagan joygacha o'lchadik (L, sm), ayrim holatlarda, tanasining umumiy uzunligini, umumiy og'irligini (W , r), ayrim hollarda ichki a'zolarisiz og'irligini, jinsiy mahsulotlari (gonadasi) og'irligini o'lchadik [7.-180s; 14.-S.23-67].

Baliqlar tangachasini qat'iy bir joydan, elka suzgich qanoti birinchi sho'lasasi asosining ostidan, yon chiziq ustining birinchi qatoridan yig'dik. Laboratoriya sharoitida tangachalar suvda ivitilib tozalandi, ba'zan ammiakning kuchsiz eritmasidan foydalandik, tayyorlangan preparatlar mikrofil'mlarni o'qishga mo'ljallangan "Mikrofot-5PO-1" apparatida 10*kattalashtirib yoki binokulyar mikroskoplar yordamida 2*8* marta kattalashtirib o'lchadik. Baliqlar yoshini va o'sish sur'atini tangachalarni o'rganish orqali aniqladik [36.-167s].

Baliqlar serpushtlik ko'rsatkichlari, etilgan va tashlangan ikralarining

o'lchami ham bahorda o'rganildi. Hovuz baliqchilik xo'jaliklaridan material yig'ish bevosita ularni ko'paytirish oldidan va ko'paytirish jarayonlarida olindi. Ko'llarda va suv omborlaridan materiallar ko'payish joyiga chiqayotgan yoki bevosita ko'payish joyida bo'lgan ota-ona baliqlar galasini tutish orqali yig'ildi [37.-180s; 38.-336s].

Baliqlar tangachasini qat'iy bir joydan, elka suzgich qanoti birinchi sho'xasi asosining ostidan, yon chiziq ustining birinchi qatoridan yig'dik. Laboratoriya sharoitida tangachalar suvda ivitilib tozalandi, ba'zan ammiakning kuchsiz eritmasidan foydalandik, tayyorlangan preparatlar mikrofilmlarni o'qishga mo'ljallangan "Mikrofot-5PO-1" apparatida 10*kattalashtirib yoki binokulyar mikroskoplar yordamida 2*8* marta kattalashtirib o'lchadik. Baliqlar yoshini va o'sish sur'atini tangachalarni o'rganish orqali aniqladik [39.-167s].

Biosferada eng ko'p tarqalgan ikkita noorganik birikma bor. Bulardan biri yer yuzining taxminan to'rt dan uch qismini qoplagan va jami qariyb 1,5 milliard km^3 dan iborat gidrosfera - suv, ikkinchisi esa kurramizni bir necha kilometr qalinlikda qoplab olgan atmosfera - havodir. Bular bir-biridan o'ziga xos sharoitlari bilan farq qiladi. Baliqning yashash muhiti bo'lgan suv o'zining bir qator fizik xossalari bilan baliqning morfologiyasi va ekologiyasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Suv havoga nisbatan zichroq, uning solishtirma og'irligi baliqning solishtirma og'irligiga yaqin bo'lganidan baliq suvda cho'kib ketmaydi, umrbod muallaq holda yashaydi, bimalol harakatlanib yura oladi. Muallaq holda yashashda baliqqa solishtirma og'irligidan tashqari suzgich pufagi ham yordam beradi. Akula kabi suzgich pufagi yo'q baliqlarda esa bu vazifani suzgichlari bajaradi(D.Xolmirzayev, P.S Haqberdiyev, D.R Shohimardonov, E.S.Shaptaqov - baliqchilik asoslari, 39- bet). Suvni kimyoviy analiz qilgunga qadar uning fizik xususiyati-harorati, tiniqligi, rangi va ta'mi kabi xususiyatlarni aniqlash zarur.

1.1.Suv harorati

Harorat hayotning eng muhim ekologik omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tana harorati beqaror, ya'ni tashqi muhitning haroratiga qarab o'zgarib turadigan hayvonlardan bo'lmish baliqlar hayotida harorat katta ahamiyatga ega.

Baliqning tana harorati deyarli suvning haroratiga to'g'ri keladi, ba'zan undan 0,5-10 °C ortiqroq bo'ladi. Shuningdek, ser harakatligi hamda tashqi muhitda sodir bo'ladigan ayrim kimyoviy va fizik hodisalar ta'siri natijasida ham baliqning tana harorati biroz ko'tarilishi mumkin. Masalan, *tunes* suzib yurganida tana harorati suvnikidan hatto 10°C gacha yuqori bo'ladi. Lekin harakatdan to'xtaganida harorati yana suvniki bilan deyarli barobarlashib qoladi. Xullas, baliqning tana harorati tashqi muhit bilan uzviy bog'liq. Bundantashqari, baliqning modda almashinuvi, nafas olishi, ovqat hazm qilishi, o'sishi, urchishi, qishlashi, migratsiyasi va boshqa hayot jarayonlarida ham suvning harorati katta rol o'ynaydi.

Baliq organizmida yuz beradigan ayrim jarayonlarni tekshirish natijasiga qaraganda suvning harorati ko'rsatilsa, baliqning jinsiy bezlari va umuman, tanasining o'sishi hamda rivojlanishi tezlashadi, u ovqatni ham ko'p yeydi, tezroq hazm qiladi, gaz almashuvi kuchayadi. Suv haroratning o'zgarishi ko'phollarda baliqqa migratsiya qilish, urchish, qishlash zarurligidan xabar beruvchi signal vazifasini o'taydi, ya'ni qo'zg'atuvchi ta'sirot hisoblanadi.

Keyingi vaqtda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, baliqlar suv haroratining nihoyatda ozgina, hatto yuzdan bir gradusga o'zgarishini ham seza oladilar. Bu hodisa mo'ljol olishda, jumladan, migratsiya vaqtida katta ahamiyatga ega. Chunonchi, uvuldiriq tashlash davrida sulaymonbaliqlar va losossimonlar, treskasimonlar kabi baliqlarni ko'rsatish mumkin.

Suv haroratining baliqlarga ta'siri. Suvning harorati baliqlarning o'sish varivojlanishiga ta'sir qilib qolmasdan, balki kasalliklarning paydo

bo'lishiga va kechishiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni eng past harorat (0,1-0,2°C) bilan birgalikda eng yuqorisi (30 °C dan yuqorisi) karp baliqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, boshqa turdagi baliqlar uchun harorat u yoki bu tomonga o'zgarishi mumkin.

Baliqchilik xo'jaligi sifatli suv bilan taminlanishi kerak. Suv taminoti 95-100% va quyidagilarni hisobga olinishi shart. Suv sarflanishi: filtratsiya uchun va bug'lanishi uchun sarflanadigan suv miqdori. Bu ko'rsatgich bir gektar suvlikdan 22⁰C da 5-10 l/sek.ga. Bu degani har bir gektar suv yuzasidan 10 litr suv sekundiga bug'lanadi. Agar hovuz maydoni 5 ga (50000 m²) qancha suv bug'lanadi.


Har xil zotli baliqlarning rivojlanish davrlarida (uvuldiriq, lichinka, chavoqva h.k.) suv harorati ma'lum darajada bo'lishi shart. Suvning past harorati baliqlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, periferik qon tomirlarining qisilishiga, nafas olishning susayishiga, ozib ketishiga, modda almashinuvining buzilishi natijasida glikoliz, keyinchalik esa autoliz jarayonining rivojlanishiga hamda asta-sekinlik bilan baliqlarning o'limiga sabab bo'ladi. Suv haroratining o'zgarishi faqat baliqlarga ta'sir qilib qolmasdan, balki har xil parazitlarning rivojlanishini kuchaytirib, kasalliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Suvning harorati qanchalik tez o'zgarib tursa, har qaysi rivojlanish bosqichida baliqning harorati shunchalik kam o'zgaradi. Baliq suv haroratining o'zgarishiga, o'zining biologik holatiga qarab turlicha javob qaytaradi. Chunonchi, sulaymonbaliqning uvuldirig'i 0 dan 12 °C gacha bo'lgan issiq haroratda rivojlanishi mumkin. Ammo katta sulaymonbaliqlar manfiy haroratdan boshlab 23°C va undan ortiq issiqda ham yashaydi. Zog'orabaliq esa sovuqdan to 20°C va undan ortiq issiq sharoitgacha hayot kechiradi. Lekin +8, +10 °C dan pastroq haroratda ovqatlanadi, +15 °C dan past haroratda urchimaydi (D.Xolmirzayev, P.S Haqberdiyev, D.R Shohimardonov, E.S Shaptaqov . Baliqchilik asoslari, 42-44 betlar). Shunday qilib, baliqlar

suvning haroratiga bo'lgan munosabatlariga qarab evritermli, ya'ni haroratning o'zgarishiga chidamli hamda stenotermli, ya'ni haroratning salgina o'zgarishiga ham chiday olmaydigan baliqlar guruhlariga bo'linadi. Evritermli baliqlarga *olabug'a*, *cho'rtan* kabilar, stenotermli baliqlarga qutb zonasi va tropic mintaqalarda tarqalgan baliqlar kiradi. Dengiz baliqlari chuchuk suv va ko'l baliqlariga nisbatan suv haroratining o'zgarishiga ancha chidamsiz. Ko'ldan namuna olishning ajralmas qismi suv va haroratini aniqlashdir. Suv harorati ko'lning turli chuqurliklarida batometr yordamida maxsus simobli termometr bilan 0,1- 0,2° C gacha bo'laklar orqali aniqlanadi (1-rasm).

Suv harorati har 3 soat oralig'ida 9-12-15-18-21-24 o'lchanadi. Olingan natija qo'shiladi va chiqarilgan umumiy son 6 ga bo'linadi. O'rtacha sutkalik suv harorati suvning issiqdan torayishi va sovuqdan yengillashib kengayishi hamda siqilmaslik xossasi ham muhim omillardanbiri bo'lib, shu muhitda yashaydigan barcha organizmlar, jumladan, baliqlar hayoti uchun katta ahamiyatga ega.

Suv harorati har 3 soat oralig'ida 9-12-15-18-21-24 o'lchanadi. Olingan natija qo'shiladi va chiqarilgan umumiy son 6 ga bo'linadi. O'rtacha sutkalik suv harorati suvning issiqdan torayishi va sovuqdan yengillashib kengayishi hamda siqilmaslik xossasi ham muhim omillardanbiri bo'lib, shu muhitda yashaydigan barcha organizmlar, jumladan, baliqlar hayoti uchun katta ahamiyatga ega.


Chunki suvning beti, ya'ni faqat ustki qatlami muzlab, ostki qatlamlaridan ajralgan issiqlikni tutib turadi. Buning natijasida qishda havzaning tagigacha muzlamasdan faqat ustki qatlami muzlaydi, xolos. Exolot yordamida ham suv harorati aniqlanadi (turli xil chuqurlikda). Masalan, *karb* uchun kislorodning minimal ko'rsatgichi past haroratdan 12-15°C dan 0,5-0,6 mg/l bo'lsa havo harorati 25-30°C bo'lganda, u 1,2mg/l



1-rasm. Termometr

gacha o'zgaradi. Suv havzasining harorati baliq va boshqa gidrobiontlar hayoti uchun katta biologic ahamiyatga ega. (Niyozov D.C, —Baliqchilik asoslari. 55-bet).

suv harorati



1-Diagramma. Og'itma ko'lining 2020 yil suv harorati o'zgarishiga qarab zoopanktonlarning o'zgarish dinamikasi

————— - O'ng qirg'oq
 ----- - Chap qieg'iq
 ||||| - O'rtasi

Og'itma ko'lining termik rejimi viloyatning tabiiy suvliklaridan 6-8°C farq qiladi. Tabiiy suvliklar Qizilqum cho'lida joylashgan. Ularda yoz faslida suvharorati o'rtacha 32-34 °C gacha ko'tariladi, havo harorati esa 44-46° C, lekin kechqurun havo va suv harorati ancha pasayadi, suv harorati 24-26° C gacha tushadi. Shahar ko'llarida suv harorati nisbatan mo'tadil. Bu esa ko'llarning mikroiklim sharoiti bilan atrofdagi binolar bilan o'rab

olinganligidir. Ayniqsa o'zining suv harorati bilan ko'l labi ancha mo'tadil. Tubi kamroq balchiq, 05.05.2019 kuni Og'itma koliga bordik va suvning haroratini o'lchadik. Suv harorati kolning o'ng, chap va o'rtasidan o'lchadik, o'rtacha suv harorati 22°C bo'lib chiqdi (2-rasm). Ko'llardagi suvning harorat o'zgaruvchanligi 1-diagrammada keltirilgan.



2-rasm. Og'itma kolning suv harorati o'lchanmoqda

1.2.Suv tiniqligi

Suv fizikasining yana bir asosiy xususiyatlardan biri uning chuqurligidir. Suvda fitoplankton, zooplankton, kabi organizmlarni tarqalishi, chuqurlikka qarab, aynan suv tiniqligi bilan bog'liq. Suv toza bo'lgan ko'llarda fotosintez jarayoni 10-20 m chuqurlikkacha boradi, zooplankton migratsiyasi ham shu masofada amalga oshiriladi. Suv tiniqligi past bo'lgan suvliklarga bunday biologik jarayonlar 4-5 m chuqurlikdan oshmaydi. Og'itma kolida esa suv tiniqligi 30-50 sm dan oshmaydi. Suv tiniqligi quyidagi faktlardan iborat: daryoda, asosan, muallaq zarrachalar sonidan va erigan hamda kolloid moddalardan ko'l va suv omborlarida biologik jarayonlarning borishida, masalan suvning gullashiga bog'liq. Suv tiniqligini aniqlashda Sekki diskidan foydalaniladi. Diskning diametri 30 sm, oqqa bo'yalgan metal plastinkadan iborat (Niyozov D.C, -Baliqchilik asoslari .55-56 betlar).(3-rasm).



3-rasm.Sekki diski

Suv tiniqligini belgilovchi omil bu- suvdagi muallaq moddalar, asosan, pleyston, plankton, detrit zarrachalari hisoblanadi. Suv tiniqligi mavsumiy xarakterga ega. Og`itma kol suvida eng yuqori tiniqlik qish faslida 1,8-2 metr, eng past tiniqlik yoz va kuzda 100-120 sm, ayniqsa kollektorlardan ko`p miqdorda suv kelganda tiniqlik pasayadi 50-60 sm gacha. Suv tiniqligi bahor faslida 70-80 sm, yozda 80-90 sm, kuzda ham 60-70 sm, qishda 100-110 sm, sabab suv almashinmaydi. Suv to`ri - *Gidrodicthyon sp*, *Spirogira sp*, *Clodophora sp* uchraydi. Bu suvo`tlari kuz faslida suv sayozlashganda chuqurligi 0,5-0,8 metr bo`lganda uchraydi(4-rasm).



4-rasm. Og`itma ko`lining suv tiniqligi o`lchanmoqda

Suv rangi maxsus shkalalardan iborat 1-XX, Forel-Ule pribori orqali aniqlanadi. Bu asbobda maxsus indikatorlar bo'lib, ular kavsharlangan ampulalarga solinadi. Agarda suv harorati 20-22°C bo'lganda *karp* har bir kg og'irligiga nisbatan bir sutkada 5 -7 l kislorod talab qiladi. Suv tubi cho'kindilari ham erish jarayoni uchun ham katta miqdorda kislorod sarflaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki *karp*, *oq amur* va *chipor do'ngpeshona* boqiladigan suvning asosiy ko'rsatkichlaridan yana biri bu suvning hidi hisoblanadi. Baliq boqish mumkinmi yoki yo'qmi aynan shu hidga bo'liq. Toza tabiiy suvning hidi bo'lmaydi. Og'itma ko'lida suv aynib, sasiq hid ajratadi, ayniqsa balchiqda. Balchiq hidi asosan ko'k - yashil suv o'tlarning, ayniqsa *ossilatoriyaning* cho'kmaga tushib chirishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday balchiq hidli suvda o'stirilgan baliq ham sassiq hidli bo'lib, ta'mi ham buziladi. Suv hidi nihoyatda his etiladigan belgi. Suv hidining xarakteri va intensivligi bir necha marotaba aniqlanib baholanadi - baliq hidi, balchiq hidi, oltingugurt angidiridi (sasigan tuxum hidi) va hakoza. Iloji boricha Og'itma ko'lining bunday sasishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Baliq boqiladigan ko'lni gullashiga yo'l qo'ymaslik kerak. Suv ta'mi - biologik ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Organoleptik usul orqali aniqlanadi. Suv og'izga olinib (10-15 ml) bir necha sekund saqlanadi, so'ngra tashlanadi (20 sekund). Tabiiy suvning sho'rlanish darajasi 1958 - yil Venesiya sistemasiga asosan chuchuk - 0,5 %, sho'rroq - 0,5-30%, dengiz - 30-40%, o'ta sho'r-40%dan oshiq kabilarga bo'linadi (Konstantinov, 1986).

Ta'miga qarab ko'l suvini sho'rlik darajasi xarakterini belgilash mumkin. Sho'rroq ta'm uchun 1g tuz 1litr suvda bo'lsa. Agar 1litr suvda 3g tuz bo'lsa, bunday suv ichishga yaroqsiz hisoblanadi. Suvning sho'rlanishi undagi xloridlarga, asosan NaCl ga bog'liq, suvning achchiq ta'mi - undagi sulfatlar miqdoriga bog'liq. Kuchli sho'rlangan har bir litrda 7g osh tuzi bo'ladi yoki undan yuqori bo'ladi. Suv sho'rlik darajasi yanada oshsa 15 - 20 g/l bo'lsa, *karp* va boshqa ko'l baliq turlarining hayoti uchun xavfli

hisoblanadi, ayniqsa uvildiriqlari otalanish uchun sharoit buziladi va uvildiriq otalanmay qoladi, gipertonik bosim yuz beradi (Niyozov D.C, —Baliqchilik asoslari .57-bet).

Tuzning baliqlarga taʼsiri. Suvda gazlardan tashqari erigan tuzlar ham bor. Xususan, dengiz suvi tarkibida turli xil tuzlar borligi bilan xarakterlidir. Ayni vaqtda tuzning tarkibi turli koʻllarda turlicha boʻladi. Chunonchi, qizil dengizning 1000 hissa suvida 45 hissa tuz boʻlganidan, unda hayotning turli shakllari mavjud. Baʼzi baliqlar tuz miqdorining oʻzgarishiga juda sezgir boʻladi. Chunonchi, Amudaryo va Sirdaryoda tarqalgan *qilquyruq* va *felboʻyin* chuchuk suvli daryolarda yashashga moslashgan, ular suvda ozgina tuz sezilsa ham halok boʻladilar. Baʼzi baliqlar esa tuzga nihoyatda chidamli, masalan, *buqabaliq* 0,27 foizdan to 38 foizgacha shoʻr boʻlgan suvda yashayveradi.

1.3.Suv havzasidagi gaz rejimining baliqlarga taʼsiri

Suv atmosferadan azot, kislorod va karbonat angidrid olib, baliqlarning hayot faoliyati uchun zarur boʻlgan zoogigiyenik muhit yaratadi, hamda suvdagi gaz miqdorining oshib ketishi yoki kamayishi baliqlarning hayotiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Vodorodsulfid va metan gazining mavjudligi esa suv havzasining anti-sanitariya holatda ekanligidan dalolat beradi, bunday suvlarda har xil kasalliklar xuruji kuchayib, baliqlarning koʻplab oʻlimiga sabab boʻladi (D.Xolmirzayev, P.S Haqberdiyev, D.R Shohimardonov, E.S Shaptaqov — Baliqchilik asoslari .42-bet).

Ogʻitma kolidagi suvning sifatini oʻrganish. Baliqlar ham barcha tirik mavjudot kabi oʻsishi va rivojlanishi uchun imkon beruvchi tashqi muhitda yashaydi, ularning mahsuldorlik darajasi ham oʻsha muhitga toʻgʻridan toʻgʻri bogʻliq. Shuning uchun baliqlar yashaydigan muhit — koʻllardagi suvning sifatini oʻrganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Koʻllar, suvomborlari, ariq, daryolar, artezian quduqlari suvining kimyoviy

tarkibini o`rganish baliqlarni urchitishga yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Baliqlarning kislorodni ko`p yoki oz iste`mol qilishi ham suvning haroratiga bog`liq. Past haroratda kislorodga ehtiyoji kam, yuqori haroratda esa ko`p bo`ladi. Kislorodga boy sovuq suvlarda yashovchi baliqlarning nafas olish organlari sodda, kislorodi kam suvlarda yashovchilarniki esa murakkab tuzilgan. Binobarin, suvdagi kislorodning miqdori baliqlarning morfologik va fiziologik xususiyatlariga ham ta`sir etadi. *Gulmohi* va *oqbaliq* kabi ko`p kislorod talab qiluvchi sovuqsevar baliqlar ham bor. Ular suv haroratining ko`tarilishidan emas, balki harorat ko`tarilishi natijasida suvda kislorod kamayib ketishidan normal nafas ololmay, bo`g`ilib halok bo`ladi. Baliqlar suvning harorati ma`lum darajaga yetganda urchiydi va uvuldiriq tashlaydi. Aprelning o`zgarishi ham suv haroratining fasllarga qarab va ko`p yillar davomida o`zgarishi bilan bog`liq. Yana shuni ham aytish kerakki, baliqlar kabi sovuqqonli hayvonlar bilan qushlar va sutemizuvchilar kabi issiqqonli hayvonlar o`rtasidagi tafovut ular qancha issiqlik ajratib chiqarishidadir. Sovuqqonlilarda bu jarayon sekinroq, issiqqonlilarda esa tezroq boradi. Masalan, og`irligi 105 grammli zog`ora baliq bir sutkada 1 kilogramm hisobiga 10,2 kkal issiqlik ajratsa, 75 grammli chug`urchiq 270 kkal issiqlik ajratib chiqaradi. Har bir tur baliqning haroratiga bo`lgan ehtiyoji ma`lum doirada cheklangan, undan tashqarida baliq yashay olmaydi. Shu bilan birga mazkur turning hamma hayotiy jarayonlari juda yaxshi kechishini ta`minlovchi optimal, ya`ni maqbul harorat ham bo`ladi. Bu harorat va yuqorida aytib o`tilgan chegara haroratlari baliqlarda juda o`zgarib turadi, shuningdek, ular har xil baliqlar uchun turlichadir. Masalan, *tovonbaliq*, *erinchoqbaliq* suv haroratining o`nlab daraja o`zgarishiga chidaydi, ayrim baliqlar esa sezilarli o`zgarishga chidamsizdir. Baliqlar har xil haroratli suvlarda yashaydi. Tropik mintaqada yashovchi baliqlarning aksariyati  $+3\text{ }^{\circ}\text{C}$  gacha bo`lgan haroratga chidasa, qaynar buloqlarda yashovchi ba`zi baliqlar $+45\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda ham yashashga moslashgan.

Kaliforniya vodiysidagi qaynar buloqlarda yashovchi *karp-tishli* baliq esa hatto harorati +52 °C dan ham ortiq boʻlgan suvda hayot kechiradi. Bunday baliqlar issiqsevar baliqlar deb ataladi. Shuning bilan birga treskasimonlar oilasiga mansub *navaga*, *sayka* kabi 2 °C sovuqda faol hayot kechiradigan va hatto urchiydigan, *tovonbaliq*, *dalliya* kabi — 0,2—0,3°C sovuqda balchiqqa koʻmilgancha, muzlab yotadigan (tana shirasi muzlamasligi shart, aks holda halok boʻladi), qishlaydigan sovuqsevar baliqlar ham bor. Bulardan tashqari, issiqsevar baliqlarga misol qilib laqqasimonlarni, karpsimon baliqlar oilasining koʻpgina vakillarini keltirish mumkin.

Oziqa zaxiralarining baliqlar hayotiga taʼsiri. Suv tarkibida oziqa zaxirasi deganda, undagi mavjud oʻsimliklar, jonivorlar hamda ularning parchalanishi natijasida hosil boʻlgan (ayni paytda ularning baliqlar tomonidan isteʼmol qilinayotganligi yoki qilinmayotganligidan qatʼi nazar) mahsulotlar majmuasiga aytiladi. Suvlarda tirik boʻlmagan tashqi tabiiy omillar majmuasidan (kislorod, mineral moddalar, abiotik omillar) tashqari, oʻsimliklar va jonivorlar dunyosining xilma-xil nisbatda mavjud boʻlishi (biotik omillar) ham, shuningdek, zaharlangan mahsulotlar baliqlar hayotiga taʼsir qilib, ularni nobud qiladi. Baliqlar oziqlanish tipiga koʻra suv qatlamining yuza qismida, oʻrta qismida va suv tubida yashovchi guruhlariga boʻlinadi. Suvning tubidagi, yaʼni pastki qatlamidagi *leshch*, *zogʻora*, *osetrsimon* baliqlar, asosan, bentoslar, chuvalchanglar va boshqa jonivorlar bilan oziqlanadi. *Seld*, *sudak*, *qalinpeshanador* baliqlar, odatda, suv qatlamining yuza qismida va oʻrta qatlamida yashab, fito va zooplanktonlar bilan oziqlanadi. Issiqlik sigʻimi nihoyatda katta boʻlganidan suvning harorati soat, sutka va fasllar ichida yer va atmosfera haroratiga nisbatan ancha kam va sekin oʻzgaradi. Bu omil sovuq qonli baliqlarning hayotiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi (D.Xolmirzayev, P.S.Haqberdiyev, D.R.Shohimardonov, E.S.Shaptaqov — Baliqchilik asoslari .46-47 betlar).

II BOB. OG'ITMA KO'LIDAGI ZOOPLANKTON TURLARI VA BALIQLAR UCHUN AHAMIYATI

Baliqchilik xo'jaligida ishlatiladigan baliq oziqasi 3 turga bo'linadi.

1.Tabiiy oziqa - Ko'ldagi tabiiy oziqa resurslari: fitoplankton, zooplankton bular mikroskopik suv o'tlari, tuban va yuksak qisqichbaqasimonlar, bakteriyalar, detrit, zoobentos, nektobentos, yuksak suv o'simliklari, hasharotlar va boshqa suv jonivorlarini o'z ichiga oladi. Tabiiy oziqa resurslari miqdori asosan suv sifatiga bog'liq. Suvdagi gidrobiontlarni ko'paytirish ham tabiiy oziqa resurslarini boyitadi. Ularning oziqa ko'effitsienti 8-10 ga tengdir.

2.Qo'shimcha oziqa. Qo'l bilan ko'lga kiritiladi. Oziqaning bu turi mahalliy bozorda bor. O'simlik hosili, chorva chiqindilari va oshxona chiqindilari. Oziqa ko'effitsienti 5-6 ga teng. Hozirgi kunda tayyorlanadigan omixta yem sifatsiz, u kepkadan yoki sellyulozadan iborat. Qo'shimcha oziqa sanoat tarzida tayyorlanadigan sun'iy omixta yem hisoblanadi. U maxsus sanoat usulida tayyorlanadi.

3.Balanslashgan oziqa. Bu ham baliqshunos tomonidan qo'l bilan baliqlarga beriladi. Ammo oziqa nihoyatda to'yimli, maxsus zavodlarda tayyorlanadi. Oziqa ko'effitsient 1,5-2,0 ga teng bo'lib, baliq, mahsuldorligi yuqori, ammo nihoyatda qimmatdir. Bunday oziqa bilan asosan *oddiy laqqa*, *kanal laqqasi*, *forel* va *karp* kabi baliq turlari boqiladi(Niyozov D.C, G'afforov H.G`-Baliqlarning oziqlanishi 5-6-betlar).

Baliqchilik amaliyotida baliq chavoqlarini va malki (baliqcha) larni qilmasdan ularni o'stirish asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayonning asosi bo'lib, yoki asosiy ko'rsatkichi bo'lib, ozuqadan foydalanish effektivligi bo'lib, ozuqa ko'effitsienti hisoblanadi. Bunda baliq lichinkasi yoki malki tomonidan iste'mol qilingan ozuqa miqdori bilan uning o'sishi o'rtasidagi nisbat hisoblanadi. Baliq lichinkasi yoki malkisi qancha miqdoroda

zooplankton iste'mol qilgan va qancha biomassa hosil qilgan. Bu amallik akvakultura amaliyotida uzoq yillardan beri qo'llab kelinmoqda.

Tabiiy ozuqadan foydalanish effektivligini V.S Ivlev tomonidan 1953 yilda amaliy jihatdan ko'rsatib bergan. V.S Ivlev birinchi bo'lib K_1 va K_2 koeffitsientlarini taklif etadi. Keyinchalik bu koeffitsientlar ozuqa energiyasidan foydalanishning birinchi va ikkinchi tartibi nomi bilan atala boshlandi. Birinchi tartibdagi foydalanish koeffitsienti (K_1) – baliq lichinkasi va malkining iste'mol qilingan ozuqaga nisbatan o'sishi (ratsion). K_2 esa assimlyasiyalardan ozuqaga nisbati bo'lib hisoblanadi. Bu yerda $K_1 = P/A$ – ya'ni P – baliq lichinkasining yoki malkining ma'lum bir vaqt ichida o'sishi, A – baliq lichinkasi yoki malkining sutkalik ratsioni hisoblanadi.

Ikkinchi tartibdagi foydalanish koeffitsienti – $K_2 = P/C$. Bu erda C – assimlyasiyalashgan ozuqa. Demak, o'sish va ratsionning o'zaro munosabati. $A = P + R$ yoki $A = a : C$ – ma'lum vaqt ichida ratsionning assimlyatsiyalashgan qismi. A – esa ozuqaning o'zlashtirilishi. Barcha gidrobiotonlar shu jumladan baliqlar uchun ham qabul qilingan. Ozuqa energiyasining 80 % ni o'zlashtiriladi. Mikroskopik suv o'tlarini hamda yuksak suv o'tlarini 50 – 60 % o'zlashtiriladi. Shu munosabat bilan $A = 0,8 S$; R – moddalar almashinuvi uchun energiya sarfi barcha ko'rsatkich kattaligi energiya birligi bilan belgilanadi (Vinberg, 1956). Demak, zooplanktonning 20 % hazm bo'lmaydi.

Baliq lichinkasi va baliq malkisi tomonidan iste'mol qilingan ozuqa effektivligi ($a - \%$) shundan dalolat beradiki, zooplankton mahsuldorligining qancha qismi (P_k) baliq mahsuldorligiga transformatsiyalashadi (P). Bu esa zooplanktonning baliq mahsuldorligidagi roli yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Har qanday boshqa suv havzasidek sun'iy ko'l ham, ekalogiya qonunlariga ko'ra rivojlanib boradigan suv ekotizimidir. Baliqshunos ekologiya asoslarini bilishi kerak, negaki baliq yetishtirishni muvaffaqiyatli kechishi ularga bevosita bog'liqdir. Oziqlanish xususiyatiga ko'ra barcha

mavjudodlar (shu jumladan Ko'llardagilari ham) avtotrof va geterotroflarga ajratiladi. Avtotroflar quyosh energiyasidan foydalanib, mineral birikmalardan o'z tanasida organik modda hosil qiladi: ular produsentlar deb ham ataladi. Bular, asosan o'simliklardir.

Geterotrof organizmlar tirik organizm yoki ularning qoldiqlari bilan, tirik va chiriy boshlagan mahsulotlar bilan oziqlanadi: ular yana konsumentlar deb ataladi. Ular qatoriga barcha hayvonlar, zamburug'lar va bakteriyalar kiradi. Konsumentlar o'z navbatida :

- Birinchi bosqich konsumentlari- o'simlikxo'r organizmlarga ;
- Ikkinchi bosqich konsumentlarga – etxo'r jonivorlarga ;
- Saprofitlarga – asosan murakkab organik moddalarni oddiy moddalarga parchalovchi mikroorganizmlar kiradi.

Baliqning tabiiy oziqa bazasi bo'lib, suv havzasidagi baliq iste'mol qiladigan barcha o'simlik va hayvon organizmi hisoblanadi. Ko'lning ozuqa zaxiralarini o'simliklar, bakteriyalar, suv jonivorlari, erigan organik moddalar, detrit(suvqatlami hamda suv tubidagi cho'kma qatlamlari tarkibidagi mayda mineral parchalari bilan aralashgan, bakteriyalar bilan to'yingan mavjudot qoldiqlaridan iborat qatlam, mayda umurtqasizlar hamda baliq lichinkalarining oziqlanishi uchun ahamiyatlidir), alloxton materiali (ko'lga quruqlikdan keltirilgan moddalar: suvga tushgan o'simliklar, jonivorlar va h.k.) tashkil qiladi (B.G. Komilov, R.B Qurbonov, T.B Salixov -O'zbekistonda karp baliqlarini ko'paytirish. 7-8 betlar).

Baliqlar ko'lning tabiiy ozuqa bazasi - baliqlar tomonida iste'mol qilinishi mumkin bo'lgan qismi hisobiga o'stiriladi. Ko'ldagi oliy suv o'simliklari, shuningdek, baliqshunos mutaxasis tomonidan ko'lga kiritilgan o'simliklar *Oq amur* balig'i uchun muhim ozuqa hisoblanadi.

Suv qatlamida erkin suzib yuradigan mayda o'simlik organizmlari – mikroskopik yashil suv o'tlari , fitoplanktonlarni tashkil etadi. Bu *oq do'ngpeshona* balig'i hamda zooplankton organizmlari (suv qatlamida yashab baliqlar ozuqasi bo'ladigan tirik mavjudotlar) uchun ozuqadir.

Bakteriyalar va mikroskopik suvoʻtlari bilan oziqlanib sekin harakatlanuvchan va oʻlchamlari kichik boʻlgan kolovratkalar, zooplankton-suv qatlamida erkin suzib yuruvchi tirik mavjudotlarning muhim guruhi hisoblanadi. Barcha baliq chavoqlari ekzogen oziqlanishga oʻtishi bilan sodda hayvonlar soʻngra zooplankton bilan oziqlanishga oʻtadilar. Demak, zooplankton baliq hayoti uchun eng zarur boʻlgan ozuqa obyekti hisoblanadi. Zooplankton miqdori yetarli darajada boʻlmasa baliq chavoqlari rivojlanmay qoladi. Quyidagi baliq turlari : *chipor doʻngpeshona*, *peylad*, *katta ogʻizli buffalo* umrining oxirigacha zooplankton bilan oziqlanadi. Suning uchun ham suv havzasidagi zooplankton mahsuldorligidan ratsional foydalanish uchun *chipor doʻngpeshona* segoletkalari bilan baliqlashtirish maqsadga muvofiq. Zooplankton biomassasi va mahsuldorligiga qarab, *katta ogʻizli buffaloni* iqlimlashtirsa boʻladi. Chunki *buffalo* oʻzining sifatli goʻsht mahsuloti bilan chipor doʻngpeshonadan keskin farq qiladi. Zooplankton suvda muallaq tarqalgan boʻlib, u asosan tuban qisqichbaqasimonlardan: kurakoyoqlilardan – Copepoda, shoxdor moʻylovdordan–Cladosera va yumaloq chuvalchanglar- Ratatoridan iborat. Ularning dominant turlaridan *Diaphfnasoma brachynrum*, *Daphnia longispina*, *Ceriodaphnia reticulate*, *Moina rectirostris*, *Chydorus sphaerycus*, *Acanthodiptonus salinus*, *Cyclops vicinus*, *Mesocyclops crassus*, *Brachionus angularis*, *Keratella quadrate* va boshqalar(1- jadval). Kolovratkalar lichinkalarni oʻstirish davriga, ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Zooplanktonning muhim guruhlariga, shuningdek, bir hujayrali qisqichbaqisimonlar ham mansubdir. Ular bir yozgi baliqchalarni oʻstirishda, tovar baligʻini yetishtirishda va ayniqsa, bir yashar baliqlarni bahorgi oziqlantirishda oʻta muhim ahamiyatga egadirlar. Zooplanktonning isteʼmolchisi –*ola doʻngpeshona* baligʻidir.

Zooplankton mavjudotlar orasida yirtqich sikloplar mavjud. Ularning yoshlari baliqlar tomonidan yaxshi isteʼmol qilinadi. Biroq yetuk sikloplar baliq lichinkalari va yosh baliqchalar uchun oʻta xavfli kushandadir. Suv tubidagi choʻkma qatlamda yashaydigan bentos organizmlarga mansub turli

hashorotlarning (chivin, xironomidalar) lichinka va g`umbaklari qimmatli ozuqa hisoblanadi. Karp hamma narsani yeyaveradigan baliq bo`lsada, ammo bentosni ayniqsa xush ko`radi( B.G Komilov, R.B Qurbonov, T.B Salixov —O`zbekistonda karp baliqlarini ko`paytirish. 9-11 betlar).

Zooplankton mavjudotlar orasida yirtqich sikloplar mavjud. Ularning yoshlari baliqlar tomonidan yaxshi iste`mol qilinadi. Biroq yetuk sikloplar baliq lichinkalari va yosh baliqchalar uchun o`ta xavfli kushandadir. Suv tubidagi cho`kma qatlamda yashaydigan bentos organizmlarga mansub turli hashorotlarning (chivin, xironomidalar) lichinka va g`umbaklari qimmatli ozuqa hisoblanadi. Karp hamma narsani yeyaveradigan baliq bo`lsada, ammo bentosni ayniqsa xush ko`radi(B.G Komilov, R.B Qurbonov, T.B Salixov —O`zbekistonda karp baliqlarini ko`paytirish. 9-11 betlar).

1-jadval

Tabiiy oзуqsasining tarkibiy qismini tashki qiluvchi organizmlarning ro`yxati (dominant turlar)

Zoobentos	Xironomid Lichinkalari	Hashorotlar lichinkalari	Nektobentos
Chironomus plumosus	+		
Ch. Thumi	+		
Ch. Reductus	+		
Cryptochironomusconjgens	+		
Limnochironomus neriso sus	+		
Tanytarsus mancus	+		
Odonata (ninachilar)		+	
Plecoptera (Bahorlilar)		+	
Hemiptera suv kanallari		+	
Trichoptera buloqchilar		+	
Colioptera suv qo`ng`izlar		+	
Ostrocooda			+
Mysidacea mizidlar			+
Gammaridae gammaridlar Krevetkalar			+

Baliqlar o`stiriladigan ko`llarning kattaligi odatda 0,5- 1,5 ga, chuqurligi esa 50-70 sm dan oshmaydi. Ko`paytirish mavsumi oldidan ko`lning tubi o`simliklardan tozalanadi va zaruratga qarab, suv qochirish tizimi tozalanib chuqurlashtiriladi. Zooplankton organizmlar yaxshi rivojlanishi uchun suv quyishdan 30 kun oldin ko`l tubi 5-7 sm chuqurlikda yumshatilib organik o`g`itlar sepiladi: 3-5 t/ga chirindi yoki compost, yoki 1-2 t/ga go`ng. Tuproqning pH ko`rsatgichi 6,5 dan past bo`lsa, tuproq xususiyatini yaxshilash, begona baliqlar, yirtqich hashorotlarni yo`q qilish maqsadida, suv quyishdan 3-7 kun avval ko`lning butun o`zaniga 2-3 s/ga hisobidan so`ndirilgan ohak kiritiladi. Ko`lga suv quyilgandan so`ng ehtiyojga qarab, ko`l qirg`oqlari bo`ylab o`g`itlar sepiladi. Qirg`oq bo`ylab nami qochgan o`g`itni yoyib chiqishham mumkin. Mineral o`g`itlar ko`llarga suv quyilgandan keyin, ular katta bo`lmasa qirg`oqdan, yirik bo`lsa qayiqlardan sepiladi. Ko`lga suv to`ldirilishi bilan 30 kg /ga miqdorda ammiakli silitra va 15kg/ga miqdorda superfosfat beriladi, 4-5 sutka oralatib o`g`itlar, shu miqdorda yana 2-3 marotaba sepiladi. Ko`l yaxshilab o`g`itlansa zooplankton organizmlari ommaviy rivojlanib baliqlar lichinkalari uchun ozuqa bo`ladi. Dastlab eng mayda fitoplankton va bakterio plankton organizmlariga nisbatan yirikroq bo`lgan kolovratkalar uchun ozuqa bo`ladi. Kolovratkalar o`z navbatida yirikroq qisqichbaqasimonlar uchun ozuqa bo`ladi. Shu tarzda ko`ldagi bir guruh organizmlar boshqalarga nisbatan yirikroq bo`lgan plankton organizmlari avji bilan tabiiy qonuniyatlarga asosan almashib boradi. Shu bois baliqchi lichinkalarni ko`lga qay paytda o`tkazishni bilishi muhimdir. Ozuqa bazasining rivojlanishi muntazam ravishda nazorat qilib boriladi(3 kunda 1 marta). Dastlabki 5 kun davomida suvda faqat kolovratkalar bo`lishi kerak. Buni tekshirish maqsadida 100 litr ko`l suvi 120-180mkr-li plankton elakdan o`tkaziladi. Elakdan o`tkazilgan namuna probirkaga solinib, unga planktonni jonsizlantirish uchun 2-4 tomchi formalin qo`shiladi. Bir soat o`tgach probirka tagiga cho`kkan namuna mikroskopda ko`zdan kechiriladi. Agar

namunaga asosan kolovratkalar bo`lib, ularning umumiy hajmi 2-3 ml va undan ortiq bo`lsa, demak ko`l lichinkalarni o`tkazish uchun tayyor. Suvning sifati ham doimiy nazorat ostida bo`lishi kerak. Har kuni tong otish paytida suvda erigan kislorod miqdori tekshiriladi. O`sinh yaxshi kechishi uchun u kamida 6-10 mg/l ni tashkil etishi kerak, qisqa muddatgina 4-5 mg/l gacha pasayishi mumkin. Agar lichinkaning jag` apparatini va zooplankton organizmlarini solishtirsa, lichinka faqat kolovratkalarni iste`mol qila olishi ravshan bo`ladi. *Karp* baliq chavoqlari o`sgan sari yirikroq zooplankton organizmlari bilan oziqlanishga o`tadi. Ko`lni baliqlashtirishni ham kechiktirib bo`lmaydi, chunki ko`ldagi dafniya va sikloplar o`sib lichinkalar uchun ozuqa bo`lmay qoladilar va baliqchalar yaxshi o`smay qoladilar. Lichinka dastlab 5-kun davomida kolovratkalar bilan, 6-10 kunlarda mayda shoxdor mo`ylovlilar va kopepodalar bilan, so`ng yirik shoxdor mo`ylablilar va kopepodalar bilan oziqlanadi. Hamda xironomidalar kabi hashorotlarning lichinkalari bilan oziqlanadi.

Ozuqa bazasini yaxshilash uchun zooplankton to`dasini shakllantirish usuli qo`llaniladi. Bunda suv quyilgandan 5-7 kun o`tgach ko`lga vaqti-vaqti bilan moina va dafniya mavjudotlari qo`shib turiladi. Ular boy ozuqa bazasiga ega ko`ldan yoki ushbu mavjudotlarni ko`paytirish uchun mo`ljallangan kichik ko`lchalardan(dafniya o`ralaridan) olinadi. Dafniya va moinalar chelaklarda va shunga o`xshash idishlarda tashiladi. Vaqt o`tgan sari ko`lning tabiiy ozuqalarini baliq chavoqlari yeb qo`yadilar. Mayda zooplankton organizmlarning rivojining avji 5-7 kunlarga to`g`ri keladi. Keyinchalik ko`lga sun`iy ravishda kiritilayotgan ozuqalarning ahamiyati tobora oshib boradi. Sun`iy ozuqalarning ahamiyati lichinkalar katta zichlikda o`tkazilgan hollarda ayniqsa oshadi. Baliq chavoqlari uchun tarkibida protein miqdori juda yuqori bo`lgan va mayda granullangan - boshlang`ich ozuqalar zarur. Zooplanktonning ba`zi turlari sun`iy ravishda ham ko`paytiriladi(2-jadval) .(B.GKomilov, R.B Qurbonov, T.B Salixov - O`zbekistonda karp baliqlariniko`paytirish||59-65betlar).

Zooplanktonlarning ba'zi turlari haqida ma'lumot

Oila: Bosminidae

Avlod: Bosmina

Tur: B.Longirostris (O.F.Mull.1785).


Bu tur keng tarqalgan tur bo'lib, o'ziga xos tuzilishga ega. Darhol ko'zga tashlanadi, shakli boshqacha antenulla rostrum bilan o'sib ketgan. Odatga ko'ra ancha orqaga egilgan, ba'zan ancha uzun, fil xartumini eslatadi.

2-jadval

Baliqlarning tabiiy ozuqasi sifatida zooplanktonni sun'iy ko'paytiriladigan turlari to'g'risida ma'lumot

Zooplankton turlari	Uzunligi, mm			Voyaga yetish vaqti sutka	Hayot davomida tuxumlar soni	Hayot davomiyliqi sutka	Optimal va kiritik suv harorati °C	1 genera-siyada tuxumlar soni	Tuxum qo'yish davriyligi Sutka
	Tuxumdan chiqish vaqti	Urg'ochi	Erkak						
Dafniya (Daphnia longispina) D. magna	0.7-0.8	2.0-6.0	2.0-2.2	3-4 (14)	10-20	120-150	5(18-24) 34	80	12-14
Seriiodafniya (Ceriodaphnia reticulata)	0.35	0.8-1.5	0.5-0.8	2-3 (12)	10-15	30	5(15-20) 32	22	1-3
Moxna (Moina rectirostris)	0.4-0.6	1.2-1.7	0.8-1.0	3-4 (14)	5-7	22	5(21-25) 40	53	1-2
Xidoris (Chydorus sphaericus)	0.18-0.22	0.3-0.5	0.3-0.4	2-3 (12)	20	30-40	7(20-28) 38	2	1-2
Braxionyc Brachionus Calyciflorus	0.10-0.30	-	-	1	15-20	4-8 (17)	22-35 (17)	6 -12	0.5


Chig'anoqning orqa qorin chizig'i bo'yiga birtadan o'simta yoki chig'anoqda bir juft ba'zan anchauzun o'simtalar bo'ladi. *V. longispina* ko'l, hovuz, mayda suvliklarning plankton hisoblanadi. Xuddi dafniyaga o'xshab variatsiyalanib bir qancha biotip (irq), siklomorfoz hosil qiladi. *Bosmina* biotiplarining 4 turi bor, bular ko'p sonli irq hosil qiladi. Yevropada ikki tur, qolgan ikki tur Osiyoda tarqalgan. *B. longirostris* uzunligi 0,4-0,6 mm, asosan suvliklarning litoral pelogial zonasida uchraydi (5-rasm).



5-rasm. *Bosmina Longirostris* oldingi tomondan ko'rinishi

Ko'lda asosan pelogial zonasida keng tarqalgan. Tabiiy ko'llarda bir qancha irqlar hosil qiladi. Partenogenetik urg'ochi zotlar uzunligi 369-480 mm, populyat-siya tarkibining 25-30 % ni tuxumlari tashkil etadi. Effipiyali urg'ochi zotlar avgust-sentabr oylarida O'zbekistonning barcha suvliklarida uchraydi.

Sikloplarni (syclopidae) aniqlashdan oldin avval ularni qaysi kenja oilaga mansub ekanligini aniqlab olish zarur. Buning uchun aniqlagichlarga murojaat qilinadi. (Rilov 1948, Muhammediev 1986, Mirabdullaev 2012). So'ngra ushbu kenja oilaning qaysi urug'ga mansubligi aniqlanadi. Syclopida urug'ida asosan R 5 uning tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Aniqlagich kaliti orqali ushbu urug'ning turi aniqlanadi(6-rasm).



6-rasm Turli urg'ochi Cyclopidae urug'ining P5 tuzilishi

- | | |
|-----------------|-----------------|
| 1. Apocyclops | 8. Cyclops |
| 2. Microcyclops | 9. Macrocyclops |


3. Megacyclops
4. Acanthocyclops
5. Mesocyclops
6. Thermocyclops
7. Eucyclops

10. Halicyclops
11. Tropocyclops
12. Menzeliella
13. Ectocyclops
14. Paracyclops

(Dussant, Defaye, 2001-yil bo'yicha)

Eucyclops serrulatus (Fischer, 1851)

Tuzilishi: uzunligi 800 – 1300 mkn. Rangi sarg'ish. Furkasi $L:W = 4,0 - 6,0$. Antetulasi 12 bo'g'imli. Antetulasining oxirgi bo'g'imi gialin plastinkasi silliq P IV bazonaditi ichki qirrasi o'tkir. EnP3P4 ning ichki tikanagi odatda bo'g'imidan kalta bo'lib, tashqi tikanagidan 1,5 baravar uzun(7-rasm).



7-rasm. **Eucyclops serrulatus**

1-umumiy ko'rinishi

2-Genital segmenti spermatoforalari bilan ko'rinishi

3-Orqa tomonidan furkasining ko‘rinishi

4-antenullasining oxirgi bo‘g‘imi

5- P4 ko‘rinishi

6-P5 ning (Monchenko, 1974 bo‘yicha)

Tarqalishi: kosmopolit, yaqin turlarning monimrasi hisoblanadi. Odatdaturli suv havzalariga xos. (ko‘llar, suv omorlari, baliqchilik hovuzi kabilar).

Cyclops Muller, 1776 urug‘i.

Yirik sikloplardan. Antetulasi 16 – 17 bo‘g‘imli. P I - P IV uch bo‘g‘imli. P V ikkibo‘g‘imli. P V ning ichki erkin bo‘g‘imi tashqi tukidan ancha kalta taxminan bo‘g‘im uzunligiga teng bo‘lib, ichki tomoni o‘rtasida joylashgan. EnP3P IV ichki tikanagi tashqichidan ancha uzun. Furkasining shoxlari qat – qat xitinli bo‘lib,dorsal tomonining ichki yuzasida tukchalar bor. Plankton tur hisoblanadi. C.Visinus turining belgilari: IV tarqal segmentining orqa yoki yon qismi qanotsimon o‘simtalarga o‘xshab cho‘zilgan.

Syclops visinus Ulianin, 1875.

Tuzilishi: tana uzunligi 1200 – 1700 mkn. Kulrang tusli. IV – tarqal segmenti orqa yon qismi qanotsimon o‘simtalar cho‘zilgan. Furkasining shoxlari uzun bo‘lib,dorsal tomoni qat – qat xitinli, ichki tomonida tukchalar mavjud. Furkasi $L/W=6,0 - 8,0$. Antenulasi 17 bo‘g‘imli uzun bo‘lib, ikkinchi tarqal segmentio‘rtasigacha boradi. P IV biriktiruvchi plastinkasi tuksiz. Enp3PIV – 2,0 – 2,7baravar tashqisidan uzun. P V ikki bo‘g‘imli, tikanagi distal bo‘g‘iminingoxirigacha kirib boradi.

Tarqalishi: O‘zbekistonning barcha suvliklarida uchraydi. Oddiy plankton vakili.

Buxoro shahridagi uchala hovuzlarida uchraydi. C.Visinus yirtqich turhisoblanadi. Baliq lichinkalari (A.V.S, etapi) va ikralari bilan oziqlanadi. Baliqchiligida ziyon keltiradi, lekin malki va segoletkalarni sevimli ozuqasihisoblanadi

Baliq mahsuldorligini ozuqa bazasi bo‘yicha aniqlash


Agar e'tibor bersangiz karpning tabiiy oziqaga nisbatan mahsuldorligi nihoyatda past. Baliqshunos baliq mahsuldorligini 10-15 s/ga gacha yetkazish uchun qancha balanslashgan omixta yem berishini hisoblab chiqadi. Yerni kovlab tayyorlangan baliqchilik hovuzlarida birinchi yili tabiiy ozuqa kam bo'ladi. Buning uchun, ya'ni tabiiy ozuqa hosil bo'lishi uchun hovuz tayyor bo'lishi bilan uning tubiga mol go'ngi yoki kompost beriladi. Har bir gektariga 2 tonna go'ngni sepib chiqish yoki to'da –to'da qo'yish ham mumkin. Go'ngni sepib chiqsa ustidan chizil qilib, so'ngra mola bostiriladi, keyin sug'oriladi. Organik o'g'it bakteriyalar rivojlanishini kuchaytiradi. Bakteriyalar, plankton, bentos organizmlari uchun ozuqa hisoblanadi. Organik o'g'it hisobida, mineral moddalar hisobida hovuzning tabiiy oziqasi shakllanadi. Baliq boqiladigan hovuzning tabiiy oziqasi ancha xilma-xil, asosan o'simlik va hayvon organizmidan iborat. Tabiiy oziqani tashkil etuvchi organizmlar o'zlarining mikroskopik razmerlaridan tortib to katta formalarigacha bo'ladi. Bularning barchasi suvda muallaq harakat qiladi va ularni plankton deyiladi (ya'ni muallaq degan ma'noda). Turli xil plankton organizmlar turli xil baliqlar uchun oziqa ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Plankton organizmlar asosan-fitoplanktonga, zooplanktonga va bakterio planktonlarga bo'linadi. Plankton organizmlar bakteriyalar ta'sirida cho'kmaga tushadi va detritni hosil qiladi. Detrit asosan o'simlik qoldig'i bo'lib chirigan bo'ladi va ko'pchilik baliqlar uchun oziqa hisoblanadi (karp, karas, zog'ora, Samarqand xromulyasi).

Plankton organizmlar ko'lining turli joylarida bo'ladi:

- a) ko'lining qirg'og'ida, yuksak suv o'simliklarining poya, shox, ildizlarida joylashadi;
- b) bular nihoyatda passiv holatda suv qalinligida harakat qiladi, masalan mikroskopik suv o'tlari, dafniya, siklop va boshqalar.

Suvdagi mikroskopik bir hujayrali suv o'tlarining asosiy vazifasi suvni kislorodga boyitishdir, ikkinchi vazifasi zoobentos va zooplankton uchun oziqa bo'lsa, oq do'ng peshonaning ham asosiy oziqasi hisoblanadi.

Suv havzasining yuzasida yoki tubida turli xil hasharotlar lichinkasi, g`umbagi va imago formalari uchraydi. Suvda va uning tubida uchraydigan chuvalchang simon lichinkaning asosiy qismini xironomid lichinkalari tashkil qiladi, 8-rasmda xironomid lichinkasi va g`umbaklari ko`rsatilgan. Zoobentos bilan asosan karp, karas, zog`ora oziqlanadi.




8-rasm. Xironomid lichinkalari - zoobentos

Zooplankton asosan kolovratkalar, kladotseralardan va kopepodalardan iborat. 9-rasmda sun'iy havzalarda uchraydigan kolovratkalar keltirilgan. Baliq lichinkalari donaogen oziqlanishga o'tishi bilan kolovratkalar va infuzoriyalar bilan oziqlanadi.


Kavsh qaytaruvchi hayvonlar oshqozonining oldingi qismida endodinomorfa turkumiga mansub bo`lgan 120 turga yaqin infuzoriyalar yashaydi. 1 sm³ oshqozon shirasi tarkibida ularning soni 2 mln gacha yetadi.

Bitta sigir oshqozonidagi infuzoriyalarning biomassasi 1 kg ni tashkil qiladi. Demak, mol oshqozonidagi mahsulot keraksiz emas ekan, molning toza go`ngi, oshqozon mahsuloti baliq lichinkasi uchun ozuqa hisoblanadi. Oziqa ob`ekti bo`lib infuzoriyalar ham hisoblanadi. Toza mol go`ngini lotoklarga eritib, suv havzasidagi baliq chavoqlari uchun oziqa hisoblanadi. Zooplanktonni asosiy guruhini tashkil qiladigan organizmlar *shohdor mo`ylovlilardir*. Asosan suvning plankton organizmini tashkil qiluvchilar hisoblanadi.



9-rasm.Kolovratkalar va ularning dominant turlari.

Baliq lichinkalik stadiyasidan o'tgandan keyin og'irligi 1—2 g bo'lgach aynan shu organizmlar bilan oziqlanadi. 10-rasmda eng ko'p uchraydigan turlar: *Daphnialongi spina*, *Alona sp.* *Ceriodaphnia reticulata*, *Diapnansoria brachiurum* hisoblanadi.



10-rasm. Kurak oyoqlilar (sopepotsalar)

Shohdor mo'ylovlar yoki kladotseralar bilan barcha baliq, chavoqlari va mayda baliqchalar oziqlanadi. Zooplanktonning yana bir oziqabop guruhi bu kurak oyoqlilar yoki kopepodalar. Bular ancha yirik va sarmahsul. Ayniqsa, *Acantodiaptomus salinus*, *Cyclops wicinus*, *Mesocyclops* sp ko'p miqdorda uchraydi. Ayniqsa, ularning nauplius, yuvenial formalari bilan baliq chavoqlari oziqlanadi. Kurako yoqlilar yoki sikloplarning tashqi ko'rinishi rasmning pastki qismida ularning naupli formalari ko'rsatilgan. Barcha baliq chavoqlari endogen oziqlanishdan chiqib donaogen oziqlanishga o'tishi bilan albatta zooplankton, fitoplankton bilan oziqlanishga o'tadi. Taxminan zooplankton bilan 30-40 kun oziqlanadi. Buning uchun baliqshunos Djedi turi bilan zooplankton yig'adi, batometr bilan fitoplankton va dnogeriatel Peterson bilan zoobentos yig'adi.

Zoobentos, zooplankton hamda fitoplankton soni va miqdorini aniqlaydi. Suv havzasidagi tabiiy oziqa turlari va biomassasini aniqlaydi. Demak, baliq chavoqlari chiqishi bilan sariqlik hisobida oziqlanib, kattalashishi bilan kattaroq organizm bilan oziqlanishga o'tadi-infuzoriya, kolovratkalar, kladosera, kopepodalar bilan oziqlanadi. Asosan voyaga yetgankarp zoobentos-xironomid lichinkalari bilan oziqlanadi:

- 1) o'simlikxo'r baliqlar (figofil) o'simlik bilan oziqlanadi.
 - a) fitoplankton bilan - oq do'ngpeshona;
 - b) yuksak suv o'simliklari bilan - oq amur;
- 2) hayvon bilan oziqlanadigan -yirtqich bo'lmagan va qisman o'simlik bilan oziqlanadi.
 - a) zooplankton bilan - chipor do'ngpeshona;
 - b) zoobentos (suv tubi hayvonlari) bilan - karp.
- 3) yirtqich baliqlar -hayvonlar organizmi bilan yoki baliq bilan oziqlanadi (forel, oddiy laqqa, kanal laqqachasi, sudak).

Baliqshunos hovuzning u yoki bu oziqa bazasining organizmlarini to'liq aniqlab, qaysi baliq ko'payishini oldindan belgilashi kerak. Baliqchilik hovuzidagi plankton qisqichbaqasimonlarning oziqa koeffitsienti voyaga

3- jadval

[illegible]

Zoobentos mahsuldorligi 340 kg/ga baliq shuni yarmini iste'mol qiladi. $340 \text{ kg} : 2 = 170 \text{ kg}$. Zoobentosning o'rtacha koeffitsienti 7 ga teng. $170 \text{ kg} : 7 = 24,3 \text{ kg/ga}$, bu oziqa xironomid lichinkasi hisobiga hosil bo'ladi. Shunday qilib baliqshunos avval tabiiy oziqa orqali qancha baliq olishimumkinligini aniqlaydi. So'ngra qo'shimcha stabillashgan omixta yem ratsionigakiritadi. Bunday usul ekstensiv baliq boqish hisoblanadi. Voyaga yetgan baliqlarning iste'mol qilinadigan tabiiy oziqasi 3-jadvalda ko'rsatilgan (Niyozov D.C, G'afforov H.G' — Baliqlarning oziqlanishi. 82-86-betlar).

Zoobentos mahsuldorligi 340 kg/ga baliq shuni yarmini iste'mol qiladi. $340 \text{ kg} : 2 = 170 \text{ kg}$. Zoobentosning o'rtacha koeffitsienti 7 ga teng. $170 \text{ kg} : 7 = 24,3 \text{ kg/ga}$, bu oziqa xironomid lichinkasi hisobiga hosil bo'ladi. Shunday qilib baliqshunos avval tabiiy oziqa orqali qancha baliq olishimumkinligini aniqlaydi. So'ngra qo'shimcha stabillashgan omixta yem ratsionigakiritadi. Bunday usul ekstensiv baliq boqish hisoblanadi. Voyaga yetgan baliqlarning iste'mol qilinadigan tabiiy oziqasi 3-jadvalda ko'rsatilgan (Niyozov D.C, G'afforov H.G' — Baliqlarning oziqlanishi. 82-86-betlar).

III BOB. OG'ITMA KO'LINING IXTIOFAUNASI

Buxoro vohasining asosiy qismi Qizil-Qum cho'lida joylashgan Turmaniston bilan chegaradosh bo'lib Amudaryoning o'ng qirog'i bilan yonma - yondir. 1969 yilga qadar Zarafshon daryosining suvi bilan taminlangan. Vohada irrigatsiya va melioratsiya jarayonlari rivojlanganligi sababli qishloq xo'jaligida sug'orish ishlari yaxshi rivojlandi. Buning asosiy sababi ABMK - I, ABMK - II va Amu-qorako'l kabi kanallarning ishga tushirilishidir. Amudaryoning o'rta oqimidan suv olinadi shundan keyin Zarafshon daryosidan sug'orish sistemasi Buxoro vohasi uchun o'z faolyatini to'xtatdi. Sug'orish, dehqonchilikni rivojlantirish natijasida Buxoro vohasi ko'p sonli tabiiy ko'llar (tashlandiq suvlar) paydo bo'ldi. Bular To'dako'l va Sho'rko'l suvomborlari, Dengizko'l, Tuzkon, Qora-qir, Og'itma, Sho'rxok, Xadicha, Devxona, Zikri va Qumsulton kabi ko'llar paydo bo'ldi. Bu ko'llardan Sho'rxok suv bilan taminlanmaganligi sababli qurib qolib, 1989 yilda o'z faolyatini to'xtatdi.

Quyi zarafshon suvliklarida M.A.Abdullayev (1989) 35 turdagi baliqlar haqida malumot berilgan. Qora-qir tabiiy ko'li esa ko'lida 16 tur baliqlar uchragan. Yoki 54,3% ni tashkil qiladi.

Respublika suvliklaridagi umumiy baliqlar 75 turdan iborat. Ushbu turlardan Buxoro vohasida 35 tasini uchratish mumkin. Shulardan 11 ta tur Qora-qir tabiiy ko'lida uchraydi (Karimov 2008).

L.S.Berg (1949) malumotiga qaraganda yaqin vaqtlargacha Zarafshon daiyosi Amudaiyoning o'ng irmog'i bo'lgan shu sababli Buxoro vohasi ixtiofaunasi Zarafshon va Amudaryo ixtiofaunasi bilan o'zaro o'xshash.

Quyi Zarafshon ixtiofaunasi to'g'risida birinchi malumot 1841 yilda A.Leman tomonidan keltirilgan. Kcyinchalik A.F.Fdshenko (1872), K.F.Keseler (1917), L.S.Berg (1905,1916,1927), F.A.Tmdakov (1969), G.V.Nikoliskiy (1938), M.S.Bumashev (1949), A.M.Abdullaev (1953,1957, 1969, 1999), G.K.Kamilov (1959,1973),

A.X.Hasanov (1967), D.Urchinov (1969,1973,1975,1989) lar tomonidan Quyi Zarafshon ixtiofaunasi to'g'risida malumotlar keltirilgan(4-jadval).

4-jadval

Quyi zarafshon suvliklari ovlanadigan baliq turlar tarkibi

N	Baliq turlari	Suvliklar								
		To`dako`l suv ombori	Quym- azor suv ombori	SHo`r- ko`l suv ombori	Dengi z ko`l	Tuz- kon	Og`it- ma	Devxo na	Qora- qir	Status
1	Ship - Aspenser nudirscentris (Lov)	+	+	+	+	+				LC
2	Amudaryo katta kurakburum- Pseudoscaphirych us Kaufman (Bogd)	+	+	+	+	+				L C
3	Orol qizil ko`zi- Rutilus rutilus aralensis (Berp)	+	+	+	+	+	+	+	+	LC
4	Cho`rtansimon oqqayroq - Aspiolucus esocinus (Kess)	+	+	+	-	-	+	-	+	LC
5	Orol oqqayroi - Aspius aspius iblioides (Kess)	+	+	-	+	-	-	+	-	LC'
6	Sainarqand xramulyasi - Varicorhinus heratensis	+	+	+						LC

	steindachnere (Kess)									
7	Turkiston mo'ylovkori - Barbus copito concephalus (Kess)	+	+	+	+	+	+	+		LC
8	Orol moybaliqi - chalcalbumus chalcoides aralensis (Berg)	+	+	+	+	+	+	+	+	LC
9	Zog'ora - Cyprius caipio (Linne)	+	+	+	+	+	+	+	+	LC
10	Kumush tovon baliq - Carassius auratus gibelio (Bloch)	+	+	+	+	+	+	+	+	AC
11	Oddiy laqqa - Silurus glanus (Linne)	+	+	+	+	+	+	+	+	LC
12	Oq sla - Lucioperca lucioperca (Linne)	+	+	+	+	+	+	+	+	AC
13	Oq amur - Ctenopharigodon idella (Val)	+	+	+	+	+	+	-	-	AC
14	Chexon - Pelecus culturatus (Linne)	+	+	+	-	-	-	-	-	LC
15	Sharq oqchasi - Abramis brama orientalis (Berp)	+	+	+	+	+	+	+	-	LC
16	Oq do'ngpeshona - Hypochthelmicht	+	+	+						AC

	ys molitrix (Valen)									
17	Chipor do'ngpeshona - Aristyctis nobilis (Rich)	+	+	+	-	-	-	-	-	AA C
18	Ilonbaliq - CHanna argus usarpochouskii	+	+	+	+	+	-	-	-	AA C
	Jami	18	18	16	13	12	10	9	7	

Izoh:

a) AAC -tasdifi inrtaduksiyalangan ovlanadigan

b)AC - yo'naltirilgan intraduksiyalangan ovlanadigan

s)LC - mahalliy tur ovlanadigan

d)LC* - nihoyatda kam uchraydigan

Quyida Zarafshon suvliklarida 18 turdagi ovlanadigan baliqlar mavjud. Ship, katta amudaryo kurak buruni ABMK - I, ABMK - II va Amu-Qorako'l mashina kanallarida uchraydi. Baliq turlarining ko'pchiligi suv omborlarida xilma-xil. Buning asosiy sababi Amudaryo bilan bog'liqligidir. Tabiiy ko'llar orasida xilma-xillik Tuzkonda 12 tur uchraydi. Tuzkon tabiiy ko'li Parsonko'l kollektori orqali Amudaryo bilan aloqador ayniqsa bahor oylarida suv ko'payganda Amudaryodan qorako'z - Abramis sapa Tuzkonga o'tadi.

Og'itma ko'lining ixtiofaunasi asosan Shimoliy kollektor ixtiofaunasi hisobiga shakllangan. Shimoliy kollektor ixtiofaunasi Zarafshon ixtiofaunasi bilan bog'liq. Lekin ABMKning tasiri ham bor. Baliq turlari unchalik xilma-xil emas. Chunki yirtqich baliq turlari ko'p sonli. Shu jumladan baliqxo'r qushlar ham ko'p. Shuni belgilash lozimki baliqlashtirish uchun qo'llanilgan

material og'irligi o'rtacha 10-15g , agar baliqlashtirish uchun qo'llanilgan materialning o'rtacha og'irligi 12,5 g deb olinsa, baliqlashtirish maqsadida keltirilgan baliqlarning scmizlik koeffisienti 0,94 ga teng. Bunday ko'rsatkich bilan segoletkalarni qishdan chiqishi qiyin(5-jadval).

5-jadval

Og'itma ko'li ixtiofaunasi va tur tarkibi

№	Baliq turlari	Yillar bo'yicha				
		1980	1990	2000	2010	2020
1	Amudaryo katta kurakburuni- Pseudoscaphirychus Kaufman (Bogd)	+	+	-	-	+
2	Orol qizil ko'zi- Rutilus rutilus aralcnsis (Berg)	+	+	+	+	+
3	Cho'rtansimon oqqayroq - Aspiolucus csocinus (Kess)	-	-	+	+	+
4	Orol oqqayroi - Aspius aspius iblioides (Kess)	-	-	+	+	+
5	Turkiston qumbaliqi - Gobio gobio lepidolaemus (Kess)	+	+	+	+	+
6	Samarqand xramulyasi - Varicorhinus heratensis steindachnere (Kess)	+	+	-	-	-

7	Turkiston mo'ylovkori - Barbus copito concephalus (Kess)	+	+	-	-	-
8	Orol inoybaliqi - chaecalburnus chalcoides aralensis (Berg)	+	+	+	+	+
